Abu Yahyo

AYOLLAR UCHUN

60 ESLATMA

ZAYTUN NASHRIYOTI

بسم الله الرحمن الرحيم

Ayollar uchun 60 eslatma

Zaytun nashriyoti
2025 (1447)-yil

1-eslatma

Nomahramga yo’liqqanda nima qilish kerak?
Muslima ayolga biror erkak to‘satdan duch kelib qolsa yoki birov unga tegajoqlik qilsa, qanday e’tiroz bildirishi kerak? Xususan, bugungi kunda aloqa vositalarida yuz berayotgan fitnalar — masalan, “Kechirasiz, siz kimsiz? Tanish emasmizmi?” deb gap boshlovchilarga qanday muomala qilish lozim?

Alloh taolo Maryam surasida aytadi: “Biz unga (Maryamga) ruhimizni (Jabroilni) jo‘natdik. U Maryamga komil inson (erkak) shaklida ko‘rindi. (Shunda Maryam aytdi): Men Rahmondan senga panoh tilayman, agar taqvodor bo‘lsang!” (Maryam surasi, 17–18-oyatlar)

Ya’ni, Maryam onamiz nomahram erkak ro‘parasida turganini ko‘rib: “Voy, siz kimsiz?” demadilar. Birdaniga istioza — panoh tilashga o‘tdilar. Panoh tilash ham Rahmon nomi bilan bo‘ldi. Ya’ni: “Men ojiza bandaman, o‘zimning senga qarshi kuchim yetmaydi. Lekin ojizlarning haqiqiy himoyachisi — Rahmon!” dedilar.

Agar sen Allohdan qo‘rqadigan bo‘lsang, taqvong seni to‘xtatsin. Agar taqvong seni to‘xtata olmasa, bilgilki, seni albatta to‘xtatib qo‘yadigan Zot bor!

2-eslatma

Ayolning qadri

Ayol kishining eri oldidagi qadr-qimmati — u ayolning Alloh oldidagi qadr-qimmatiga qarab bo‘ladi! Allohning oldida qadrli bo‘lgan ayolni Alloh aslo xor qilmaydi, agarchi eri fir’avndek zolim bo‘lsa ham.

Mana, Fir’avn xotini Osiyaga qarang. Muso alayhissalomni topib olganida, eri fir’avn barcha go‘daklarni o‘ldirib, ayollarni cho‘ri qilib yurgan zolim tog‘ut edi. Lekin Osiyo: “Musoni o‘ldirmanglar!” deganda, fir’avnning oyoq-qo‘li o‘ziga bo‘ysunmadi. O‘ldirgisi kelsa ham, o‘ldira olmadi. Chunki bu ayolning Alloh oldidagi qadri nihoyatda baland edi!

Agar ayol erini Alloh bilan tutib turmasa, boshqa biror narsa bilan tutib turolmaydi.

- Chiroyliman desa — undan ham go‘zallari topiladi.
- Aqlliman desa — er undan ham aqlliroq bo‘lib chiqadi.
- O‘tkirlik, makr qilaman desa — Alloh oyatda xabar qilganidek, makr oxir-oqibat o‘z egasiga qaytadi!

3-eslatma

Ayol nolasi 1

Nega Alloh eridan nola qilayotgan ayollar duosini ijobat qilmayapti? Bugungi jamiyatga nazar solsak, ayollarni ikki qismga bo‘linib qolganini ko‘ramiz:

1-qism ayollar: Eri uchun mutlaq qulga aylanib qolgan! Balki hattoki ibodat ham qiladi. Lekin ibodatdan maqsad nima desa — itoat qilish, halolmi-harommi farqi yo‘q. Bunday ayollarning nolalariga Alloh qanday qilib quloq solsinki?!

2-qism ayollar: Bular erida o‘z haq-huquqlari borligini bilib qolgan. Shuning uchun har gapida: “Yo haqimni berasan, yoki talog‘imni!” — deb, tili bir qarich turadiganlar.

O‘zlaricha: “Agar haqimni olmasam, Alloh mening tarafimda bo‘ladi, dardimni eshitadi,” deb o‘ylashadi.

Endi savol tug‘iladi: haqiqiy soliha ayol kim, Alloh nolasini kimning eshitadi? Alloh taolo Mujodala surasining avvalida aytadi: “Albatta, Alloh siz bilan eri haqida tortishayotgan, Allohga shikoyat qilayotgan ayolning so‘zlarini eshitdi.”

Bu qissani Imom Ahmad va boshqa muhaddislar to‘liq rivoyat qilganlar.

- Bu ayol kim edi?
- U erining nimasi haqida shikoyat qildi?
- Nega Alloh u ayol haqidagi voqea sabab bir butun surani nozil qildi?
- Va u ayol yuqorida ta’riflaganimiz ikki toifadagi ayollarning qaysi biriga mansub edi?

Bularning javobi va ushbu qissadan olinadigan ibratni kelasi eslatmada taqdim qilamiz, inshaAlloh.

4-eslatma

Ayol nolasi 2

Avvalgi eslatmada zikr qilingan, Mujodala surasining avvalgi oyatlari nozil bo‘lgan ayol — Xavla bintu Sa’laba edi.

Uning eri qarib, injiq bo‘lib qolgan chol edi. Bir kuni injiqlik qilib, xotinini “zihor” qildi. (Ya’ni, johiliyat davridagi taloq ko‘rinishlaridan biri — “Sen menga onamning orqasidaysan” deb aytish.)

Xavla onamiz aytadilar: “So‘ngra u yana kelib meni (to‘shakda) xohlab qoldi. Shunda men: Yo‘q! Men sizga harom bo‘ldim! — dedim. Ya’ni, zihor yo‘li bilan taloq qilinganman, endi siz menga teginishingiz haromdir, dedim.”

Shunga qaramay, eri uni majburlamoqchi bo‘ldi. Lekin Xavla aytadi: “Bir zaif cholni yengib turib ketish menga oson bo‘ldi!” Shundan so‘ng Xavla Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kirib shikoyat qila boshladilar: “Yo Rasulullоh! Yoshligimni unga bag‘ishladim, qornimni unga sochdim (ya’ni, unga farzand tug‘ib berdim). Endi yoshim o‘tib, farzand tug‘maydigan yoshga yetganimda, mendan zihor qilib o‘tiribdi!”

Ayol so‘zini tugatmasdan yuqoridagi Mujodala surasining oyatlari nozil bo‘ldi: “Bataxqiq, Alloh eri haqida siz bilan tortishib, Allohga shikoyat qilayotgan ayolning so‘zlarini eshitdi.”

Oisha roziyallohu anho aytadilar: “Men uyning ichida edim. Xavla shunday shivirlab gapirardiki, ba’zi so‘zlarigina menga eshitilardi.”

Ulamolar bu voqeada Xavlaning odobini eslatadilar. U mazluma bo‘lsa-da, ko‘chaga chiqib hammaga “ayyuhannos” solmadi. Faqat shariat hukmini bilish uchun Rasulullohga xabar qildi. Hatto shivirlab, Oisha onamiz ham zo‘rg‘a eshitadigan qilib gapirdi.
Endi bugungi ahvolga qarang: Eridan zulm ko‘rgan ayol shikoyat qilmagan odam qolmaydi. So‘ngra “Allohga topshirdim” deydi. Holbuki, Allohga topshirish uchun butun mahallaga yoyib chiqish shart emas!

Xavla onamiz eridan ajralish uchun emas, balki unga qaytish yo‘lini izlab kelgan edilar. Rasulullоh esa avval: “Sen eringga harom bo‘lding” deb qaytarar edilar. Shunda Xavla Allohga shikoyat qildi. Alloh esa hukmni nozil qilib, Xavlani eriga qaytardi.
Bu qissadagi ibrat shuki:

- U eriga qaytishni istasa ham, harom ishga qo‘l urmadi.
- Eri uni xohlab, hatto majburlaganda ham, Rasulullоh hukmni bayon qilmaguncha erini o‘ziga yaqinlashtirmadi.
- Allohning haqqini rioya qildi.
- Erining, oilasining nomusini himoya qildi.
- Injiq chol bo‘lsa-da, eridan voz kechmay, Allohga shikoyat qildi.

Ana shunday xislatlarga ega bo‘lgach, uning “shivirlab” aytgan so‘zini Alloh yetti osmon ustidan turib eshitdi!

Xatto Xavla keyin Umar roziyallohu anhuni to‘xtatib: “Ey Umar, Allohdan qo‘rq!” — der edi. Bugungi ba’zi ayollar esa: “Menga Alloh bo‘lsa bas,” deya da’vo qilishadi. Lekin bilmaydilarki, Qur’onda Alloh aytadi: “U Zot sizlardan ba’zilarini ba’zilariga ustun qilib, muhtoj qilib qo‘ydi.”

5-eslatma

O’tmish va bugun

Alloh taolo Qasos surasining 23-oyatida Muso alayhissalomning Shu’ayb alayhissalom qizlariga uylanish voqeasini zikr qiladi. U oyatda Shu’ayb alayhissalomning qizlari mo‘mina ayollar uchun ibrat sifatida tilga olinadi. Zero, ular qo‘ylarini sug‘orishlari kerak edi, ammo erkaklar sug‘orib bo‘lguncha chetda kutib turishardi. Otalari esa qari chol bo‘lib, o‘zlari buni bajara olmas edilar.

- Otalari qarilikda bo‘lsa-da,
- Issiqda erkaklar ketguncha kutib tursalar-da,
- Qo‘ylari tashna bo‘lsa-da — ular erkaklarga aralashib, o‘zlarini aralashtirib yubormadilar!

Endi bugunga qarang:

- Bozor-u ko‘cha-kuyda xandon otib, erkaklar bilan chaq-chaqlashib yurgan ayollar,
- “Bola-chaqa boqish kerak” degan bahona ostida erkak-ayol aralash ishlaydigan joylarda ishlaydigan ayollar,
- Otasi qarib gapi o‘tmay qolgach, ota-onasining so‘zini mensimay o‘z bilganini qiladigan qizlar,
- Yoki ota-onasi Facebook va Telegramni tushunmasligidan foydalanib “uddaburonlik” qilib yurganlar.

So‘ngra Muso alayhissalomdek sadoqatli, pokiza umr yo‘ldosh xohlashadi! Yo‘q, chuchvarani xom sanabsiz! O‘zingizga o‘xshagan bir oliftaga yo‘liqasiz, xolos.

6-eslatma

Allohning va’dasiga ishonch

Sahobiy ayol — Ummu Zufar al-Habashiyya. U kishi tutqanoq kasali bilan og‘rigan edilar. Ko‘cha-kuyda tutqanoq tutib, kiyimlari ochilib ketar edi. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kelib, duo so‘radilar.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Xohlasang, sabr qil, evaziga senga jannat bo‘ladi. Xohlasang, duo qilaman (kasaling ketadi).” Ayol esa: “Men sabr qilaman,” dedi. U: “Axir men sahobiyaman, shundoq ham jannatga kiraman. Nega jannatga kirish uchun dunyoda majnuna sifatida yurishim kerak?” — demadi. Chunki sahobiy ayollarning jannat haqidagi iymoni xom-xayol emas, haqiqiy edi!

Bugungi erkak va ayollarimizning jannat haqidagi iymoni esa go‘yo mavhum va’da kabi!

- Davlat bankiga pul qo‘ysa, uni qaytarib berishiga 100% ishonadi.
- Lekin iymon yo‘liga kirib, dunyoda kimdandir haqqi o‘tib ketsa, yoki biror haq-huquqi berilmasa, “Jannatda olasan,” desangiz, rozi bo‘lmaydi.

- Balki norozilik qilib, javranaveradi, shikoyat qilib tinmaydi.

Ey mo‘min banda! Jannatga iymoning, davlat bankiga bo‘lgan ishonchingchalik ham emasmi?!

7-eslatma

Farzand - onaning mevasi

Eri sahroga tashlab ketganida, Hojar onamiz dedilar: “Alloh sizga shuni buyurdimi? Agar Alloh buyurgan bo‘lsa, men roziman.”

Ana shunday sabrli, itoatkor onadan, ota-onasiga ham, Allohga ham itoatli farzand — Ismoil alayhissalom tug‘ildilar. U zot otalariga: “Ey otam, Alloh nimani buyurgan bo‘lsa, qiling! Agar meni so‘yishni buyurgan bo‘lsa, so‘ying!” — dedilar.

Alloh taolo aytdi: “Ular sabr qilgach, Bizning amrimiz bilan ulardan imomlar (peshvolar) qilib, Bizning amrimiz ila hidoyat qiluvchilar qildik.” (Qisqa o‘zgartirish bilan tarjima)

Endi bugun esa, ona uyda har xil gaplarni qilib, turli bahonalar bilan eridan shikoyatni farzand qulog‘iga quya boshlasa — bu farzandlarga avliyolar dars bersa ham foyda bermaydi. Ular otasiga qarab betga chopadigan, oxir-oqibat Allohga ham isyon qiladigan bo‘lib ulg‘ayadi.

8-eslatma

Ayolni e’tiborsiz qoldirmang

Shayxul-Islom Ibn Taymiyya rahimahulloh aytadilar: “Ayol kishi yosh boladan ko‘ra ko‘proq uni saqlash va parvarishlashga muhtojdir. Qancha uni satr qilinsa, shuncha isloh bo‘ladi.” (Al-Fatavo kitobidan)

Ya’ni, yosh bola yig‘lasa ham, dodlasa ham, baribir uni tarbiyalash, o‘qitish, uni o‘z bilganini qilib tashlab qo‘ymaslik lozim bo‘lgani kabi, ayol kishini ham eri, ota-onasi yoki aka-ukalari doim uning bilan shug‘ullanib, xifz va riyoasida olib yurishlari lozim. Bu esa ayolning o‘zi uchun ham eng katta isloh va rahmatdir.

9-eslatma

Qilsang, Alloh uchun qilibsan

Bugun ko‘plab oilalarda qulog‘imizga chalinadigan gaplardan biri shu. Er-xotin o‘zaro aytishib qolsa va erkak xotiniga qarab: “Shukr qil,” desa, ba’zi ayollar tayyor gap bilan javob berishadi: “Qilsang, Alloh uchun qilibsan,” yoki “Bu seni vazifang.”

Ammo bu muslima ayol sifati emas.

1.Alloh Qur’onda: “Yaxshilikda bir-biringizga yordamchi bo‘linglar,” deb marhamat qiladi. Ya’ni odamlarning qilgan yaxshiligini tan olib, ularni yana yaxshilikka targ‘ib qilish kerak. Ularning xafsala va himmatini o‘ldirib: “Qilsang Alloh uchun qilgansan,” deb betga chopish to‘g‘ri emas.

2.Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Odamlarga shukr qilmagan kishi Allohga ham shukr qilmaydi.” (Imom Buxoriy, Adab al-Mufrad)

Demak, odamlarga qarab: “Qilsang qilibsan-da, bu seni vazifang,” deydigan kishi, ertaga Allohga ham: “Yaratgan bo‘lsang, yaratibsan-da, bu sening ishing,” — deyishdan to‘xtamasligi mumkin. Alloh saqlasin!

10-eslatma

Dunyoda soliha bo‘lib o‘tgan ayollar — albatta jannatdadirlar

Agar bir ayol dunyoda bir necha marotaba turmush qurgan bo‘lsa, jannatda erlaridan eng xulqi go‘zalini tanlaydi.

Shuningdek, dunyodagi soliha ayollar jannat hurilardin ham sharafli bo‘ladilar. Chunki ularda dunyodagi ibodatlar, sabrlar, qiyinchiliklarga chidamlar bor. Hurilarda esa bunday ibodatlar yo‘q. (Shayx Ibn Jibriyn rahimahulloh)

Alloh va Rasulining xurlar haqida zikr qilgan barcha go‘zalliklari — aslida dunyo ayollari uchun hamdir. Ular oxiratda xurlardan ham go‘zal, ulug‘ va batariqi a’lo bo‘ladilar. Shuning uchun, ey ayollar, jannatni dunyoviy qarich bilan o‘lchamang!

Bu dunyoda rashkni berib, u dunyoda esa ayollaringizni hurdan ham go‘zal qilib, rashkni ham ko‘tarib qo‘yishga Alloh ojizmi?!

11-eslatma

Ko‘ngli to‘lmas er

Har qanday ayol bir xonadonga kelin bo‘lib tushar ekan, albatta tirnoq orasidan kir qidiradigan, hech narsadan ko‘ngli to‘lmaydigan er, yoki qaynona-qaynota, yoki erning boshqa qarindoshlari bilan yashashga majbur bo‘ladi.

Shunda uning oldida ikki yo‘l bo‘ladi:

1. Ajrashish yo‘li. Eridan ajrashib, bu muammolardan qutulish. Ammo bu uslubni shariat “marjux” — ya’ni afzal bo‘lmagan yo‘l, deydi. Chunki inson baribir hayot davomida shunday odamlar bilan duch kelaveradi.

2. Sabr yo‘li. Bu “rojix” — to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, oxirat uchun ham foydali. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Odamlar bilan aralashib, ulardan keladigan ozorlarga sabr qiladigan mo‘min, odamlar bilan aralashmaydigan va ozorlariga sabr qila olmaydigan mo‘mindan yaxshiroqdir.” (Imom Buxoriy, Adab al-Mufrad)

Demak, “Boshingdan qolsin” deb ketib yuborish zaiflikdir!

Arablar Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning oldilariga kelib, pul talab qilishar, hatto “Adolat qilmading,” deb rahmatlariga shubha qilishar edi. Shunda ham Payg‘ambarimiz: “Yo‘qolib ket,” demadilar. Balki o‘zlariga tasalli berib: “Alloh Musoni rahim qilsin! Undan bundan ko‘proq ozor ko‘rilsa ham, sabr qilgan edi,” — deb qo‘yardilar.

Shu bois, muslima ayol ham uyda tirnoq orasidan kir qidiradiganlarga duch kelsa, yuqoridagi hadisni yodga olsin: “Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga Allohning rahmati bo‘lsin! U zot bundan ham ko‘proq ozor eshitganda sabr qilgan edilar.”

12-eslatma

Boshyalang qalbi tozalar

Gohida ayol-qizlardan: “Mening ko‘nglim toza, Islom faqat hijob emas-ku...” — degan da’volarni eshitamiz.

Bu mavzuda ko‘p gapirilgan bo‘lsa-da, Allohning bir oyati bilan chek qo‘ymoqni istadik: “Qachonki (taqiqlangan) daraxtning mevasidan totib ko‘rishgach, ularga avratlari fosh bo‘lib qoldi.” (A’rof: 22)

Shayx Sa’diy rahimahulloh aytadilar: “Qalbning betaqvoligi, albatta tashqi libosga ta’sir qiladi.”

Odam alayhissalom bilan Havvo onamiz birgina marta qaytarilgan ishni qilgan edilar — ya’ni qalbdan taqvo ketishi bilan darhol avratlari ochilib qoldi.

Endi boshiga ro‘mol solishni ham unutib, oyoqdan ishtonini tushirib, yelkadan ko‘ylagi sirg‘alib tushgan ayol qanday qilib qalbida taqvoni da’vo qila oladi?! Javob — har bir qalbning o‘ziga havola!

13-eslatma

Xolis tarbiya

Alloh taolo Muso alayhissalomga aytadi: “Esla! Opang (sening ortingdan) yurib borib: (Fir’avn ahliga qarab) ‘Sizlarni bu bolani kafillikka oladigan kishilarga yo‘llab qo‘yayinmi?’ degan edi.” (Toha: 40)

Muso alayhissalom go‘dakligida opasining bosgan qadamlari, oradan qancha yillar o‘tgach, Alloh tomonidan eslatilmoqda! Hatto uni abadiy tilovat qilinadigan Qur’onga aylantirib, so‘zlamoqda!

Ibrat shuki: “Haq uchun bosilgan qadamlar hech qachon zoe bo‘lmaydi! Faqat vaqt kerak.”

Opa o‘zining bu qadami bilan Fir’avnni yo‘qotadigan, ummatni qutqaradigan “Muso”ga yordam berayotganini bilmas edi. Balki shunchaki opalik vazifasini sidqidildan bajargan edi.

Bugun ham qo‘lingizda yig‘lashdan boshqa narsaga yaramayotgan farzandlaringiz yoki ukalaringiz, kelajakda kimlar bo‘lib voyaga yetishini bilmaysiz. Sizning vazifangiz — ularni xolis niyat bilan tarbiyalash, ularga chin dildan g‘amxo‘rlik qilishdir.

14-eslatma

Qaysi ayolning turmush o‘rtog‘i uning haqqiga duo qilmoqda?

Agar bir ayol erini Rahmonning chin bandasi bo‘lishini istasa, avvalo turmush o‘rtog‘iga shu savolni berib ko‘rishi kerak: “Sen men uchun duo qilyapsanmi? Mening haqqimga ham Robbimizga iltijo qilasanmi?”

Chunki Alloh taolo Furqon surasida Rahmonning bandalari sifatlaridan o‘ndan ortig‘ini zikr qiladi. Ulardan biri haqida shunday deyiladi: “Va ular aytadilar: Ey Robbimiz, bizga juftlarimiz va zurriyotlarimizdan ko‘z quvonchlari ato etgin va bizni taqvodorlarga imom qilgin!” (Furqon: 74)

Demak, kishi ahli, oilasi va zurriyoti haqida duo qilmas ekan, u “Rahmonning bandalari” sifatiga to‘liq ega bo‘la olmaydi.

15-eslatma

Sadaqa qutisi

Ma’lumki, Rasulullоh alayhissalom ayollarga: “Ey ayollar jamoasi! Sadaqa qilinglar!” (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati)

Aslida ayol kishi odatda uy bekasi, iste’molchi, mol-mulki ham eriga tobe bo‘lsa, nega aynan ayollarga sadaqa qilish buyurildi? Buning ostida katta hikmat bor!

Islom bizga “qo‘limdan kelmaydi” deb faqat o‘zini o‘ylab yashashni emas, balki eng zaifimiz ham boshqalarga manfaat berib yashashini ta’lim beradi. Bu esa ayol farzandlarini: “Men qila olmayman” degan so‘zni hayotidan o‘chirib tarbiyalashiga dastak bo‘ladi.

Shariat ayollarga, erining molidan o‘z ehtiyoji uchun yetarli miqdorda, isrof qilmasdan olishga ruxsat bergan. Demak, agar ayol (o‘zi ishlamasa ham) eridan o‘z ehtiyoji uchun 100 so‘m olsa, shundan 99 so‘mini o‘z ehtiyojiga ishlatib, 1 so‘mini “sadaqa qutisi”ga ajratsa, bu ham dini uchun katta amal hisoblanadi! Va shu sababli u o‘zini jahannamdan ozod qiluvchi amallar safida bo‘ladi.

Shariat bizdan ulkan ishlarni qilishni emas, balki bekor turmaslikni talab qiladi. Shuning uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Ayol qo‘shnisiga bir qo‘yning tuyog‘ini sadaqa qilib bersa ham, uni arzimas deb sanamasin!” (Buxoriy va Muslim)

Ammo, albatta, kimda nima bo‘lsa, o‘sha boricha — borini boricha, yo‘g‘ini yo‘g‘icha qilishga mas’uldir.

16-eslatma

Oiladagi tinchlik siri

“Aql joyida bo‘lmagan vaqtdagi dashnom, haqoratlarni jiddiy qabul qilmaslik — er-xotin hayoti davom etishining sirlaridandir.”

Alloh taolo ayollarning sayyidasi Maryamning to‘lg‘oq azobida aytgan so‘zini keltiradi: “U aytdi: Qani edi ertaroq o‘lib, unut bo‘lib ketganimda.” (Maryam: 23)

Bu so‘z go‘yo o‘limni orzu qilishday tuyuladi. Lekin musibat ta’siri ostida va odamlarning fitnasiga tushib, yomon oqibatdan qo‘rqib, shunday dedilar — shuning uchun Alloh tomonidan bu so‘zga jiddiy e’tiroz bo‘lmadi; aksincha, “Xafa bo‘lma” deb tasalli berildi.

Oilada er xotinga, xotin erga, qaynona kelinga jahl bilan turli so‘zlar aytishi mumkin. Kim hayoti davom etishini istasa, bunday gaplarga ko‘z yumishni, sabr va hikmat bilan o‘tishni o‘rganishi kerak.

Ammo “Mening haqqim, sening haqqing” degan gaplarni doimiy qilib qo‘ysangiz, bunday munosabatda hayot yurmaydi.

17-eslatma

Bolaning tarbiyasiga ertaroq bel bog‘lash

Alloh taolo Maryamning onasining duosini zikr qiladi: “Eslang, Imronning xotini aytgan edi: Ey Robbim! Men qornimdagi narsani (barcha yumushlardan) ozod qilib, Senga nazr qildim. Mendan qabul qilgin. Albatta, Sen duolarni eshituvchi, niyatlarni biluvchisan.” (Oli Imron: 35)

Demak, bolaga tarbiya hali odam bo‘lmasidan, ona qornida “narsa” davridayoq boshlanar edi. O‘sha “narsa” davridayoq unga din g‘ami singdirilib, haqqiga duolar qilinar, undan yaxshi umid va niyatlar qilinar edi.

Hali “narsa” davridayoq uni dunyo matohlaridan ozod fikrda, Alloh uchun xolis qilib dunyoga keltirishga bel bog‘lanar edi. Va o‘sha paytdan boshlab unda Alloh — eshituvchi, biluvchi ekanligi haqidagi aqida singdirilar edi.

Natijada ana shunday tarbiyalar ichidan Maryamlar, ulardan esa qiyomatgacha insoniyat xaloskori bo‘lgan Iso alayhissalomlar tug‘ilar edi.

Endi esa bugun qarang: 18 yoshga kirgunicha “qo‘ygin bolam” deb, na dinni, na Allohni tanitmaymiz. So‘ngra esa farzandimizga qarab: “Bolam, nega bunaqasan?” deb chiqamiz.

18-eslatma

Hovlidan oldin qo‘shnini tanlang

Bu so‘z arablar orasida mashhur hikmatlardan bo‘lib, Qur’onda ham uning tasdig‘i bor.

Alloh taolo aytadi: “Alloh iymon keltirganlarga Fir’avn xotinini misol qilib keltirdi. U aytgan edi: Ey Robbim! Menga O‘z huzuringda jannatda bir uy bino qilgin, meni Fir’avndan va uning amallaridan najot bergin, va meni zolim qavmdan qutqargin.” (Tahrim: 11)

E’tibor bering: u avvalo “O‘z huzuringdan...” deb, kimga qo‘shni bo‘lishni tanladi. So‘ngra: “Uy bino qilgin.” dedi.

Ayol biror xonadonga kelin bo‘layotganida, avvalo qiziqishi kerak bo‘lgan savol: “Kimlar bilan yashayman?” bo‘lishi kerak. “Uyi qanday ekan? Qayerda joylashgan?” emas.

Chunki Fir’avn xotini qasrda yashasa-da, zolimlar orasida qolib, Allohdan najot so‘rab duo qilgan edi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ham yomon qo‘shnidan panoh so‘rab duo qilar edilar.

19-eslatma

Otasining erkatoyi

Ona bo‘lib ham: ”Men otamning erka qizi edim” deb yig‘lab yurmang! Alloh taolo Maryam onamizning qizlik chog‘idagi holatini zikr qiladi: “Qachon Zakariyyo uning oldiga mehrobga kirsa, uning oldida rizq topib: ‘Ey Maryam, bu senga qayerdan keldi?!’ der edi. Maryam: ‘Bu Alloh huzuridan (keldi),’ der edi.” (Oli Imron: 37)

Ammo Maryam onamiz Iso alayhissalomni tug‘ib, qiynalib yotganlarida esa, Alloh dedi: “O‘zingga qarab xurmo poyasini silkitgin, senga yangi pishgan xurmolar to‘kiladi.” (Maryam: 25)

E’tibor bering! Qizlik davrida mehrobda yo‘q joydan taom paydo qilgan Zot, tug‘ish paytida nega “xurmo poyasini silkit” dedi?! Holbuki, tug‘ayotgan ayol uchun xurmo daraxtini silkitish oson ish emas. Alloh o‘zi taomni yaratib bera olardi-ku!

Sababi shuki: Maryam endi ona edi. “Otamning erka qiziman” degan davr tugadi. Endi hayotga jiddiy qarash, harakat qilish, yashash uchun kurashni o‘rganish zarur edi.

20-eslatma

Siz qaysi vodiydasizu, eringiz qaysi vodiyda

Oisha onamiz aytadilar: “Bir kecha Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamni yonimda topolmay qoldim. Shu zahoti xayolimga: ‘Ba’zi ayollarining oldiga ketibdilar,’ degan o‘y keldi (uyqum qochdi). Paypaslasam, u zot ruku yoki sajdada ekanlar. Shunda men: ‘Siz qaysi vodiydasizu, men qaysi vodiydaman,’ dedim.”

Boshqa rivoyatda: “Paypaslab sochlariga qo‘limni tiqib oldim. Shunda u zot: ‘Ha, shaytoning keldimi?’ dedilar.” (Nasaiy rivoyati)

Ya’ni, Oisha onamiz: “Siz ibodat bilan bandsiz, men esa boshqa narsalarni o‘ylab yuribman,” demoqchi bo‘ldilar.

Ammo e’tibor bering: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam bu xislatni shaytondan ekanini eslatdilar. Hatto Oisha onamizday ulug‘ onamizni ham vasvasa qilganini bayon qildilar. Demak, boshqa ayollar bu vasvasaga yanada ogoh bo‘lishlari lozim. Chunki odatda er boshqa “vodiyda” yurganda, xotin boshqa “vodiydan” kirib qolsa, o‘rtada janjal chiqib, hammaning ko‘ngli xira bo‘ladi.

Shuning uchun: “Onalarimizda ham bu xislat bo‘lgan ekan-ku,” deb o‘ziga hujjat chiqarish to‘g‘ri emas. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam uni shaytonga nisbat qilgan bo‘lsalar, bu sifatning asl manbai vasvasa ekanini unutmaslik kerak.

21-eslatma

Ayolning erga itoati — erning amirga itoati muqobilida

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Uch toifaning ahvolini so‘rab o‘tirma (ya’ni, ular dahshatli azobga giriftor bo‘ladilar):

1. Bir kishi jamoatdan ajralib, imomiga osiy bo‘lsa,
2. Biror cho‘ri yoki qul xo‘jasidan qochib vafot etsa,
3. Biror ayol — eri g‘oib bo‘lsa, xolbuki u (er) unga dunyo tashvishlarini kifoya qilib ketgan bo‘lsa, ammo ayol eridan keyin ochiq-sochiqlik qilsa... Mana, bularning hukmini so‘rab o‘tirma!”
4. (Imom Ahmad rivoyati)

E’tibor bering: erining g‘oibligida itoatdan chiqqan ayol, xo‘jasidan qochgan qul va amirga osiy bo‘lgan erkak bilan bir safda zikr qilindi. Ko‘pincha kishilarda savol tug‘iladi: “Nega ayol eriga itoat qilishi kerak? Nega erkak ozod, ayol esa cheklangan?”

Aslida, erkaklar ham o‘z bilganini qilib yuradigan ozod emaslar. Ayol eriga qanday itoatga buyurilgan bo‘lsa, erkak ham amiriga shunday itoatga buyurilgan. Shuning uchun hadisdagi uch toifaning gunohi bir darajada zikr qilindi.

Xulosa: hech kim mutlaq ozod emas! Har qanday boshliqning ustida yana bir boshliq bor. Ularning hammasi ustida esa yagona Hokim — Alloh taolo turibdi.

22-eslatma

Hurilarning qarg‘ishiga qoladigan ayollar

Muoz ibn Jabal roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Qaysi bir ayol dunyoda eriga ozor bersa, albatta (erkakning) jannatdagi huridan bo‘lgan xotini aytadi: ‘Alloh seni halok qilsin! Unga ozor berma! U sening huzuringda mehmon xolos, yaqinda sendan ajralib bizga keladi.’” (Termiziy va Ahmad rivoyati, sahih)

Demak, hurlar bo‘lajak erlarining dunyodagi qiyinchiliklarini ko‘rib, ularga duo qilib turadi. Ayol esa eriga: “Men seni duo qilib, odam qilib yurubman,” deb o‘ylamasin. Alloh biladi — aslida kimlar uning haqqiga duo qilmoqda.

Shuningdek, hurlarda ham rashk bor. Bu rashk oddiy qizg‘anish emas, balki dunyodagi xotinlarning eriga qilgan ozori sabab paydo bo‘ladi.

E’tiborli jihati shundaki, hadisda faqat kofira ayollar haqida tahdid qilinmagan. Chunki “erining jannatdagi xotini” degan jumladan ma’lumki, erkak musulmon bo‘lsa, uning xotini ham tabiiyki musulmon bo‘ladi. Kofira ayol musulmonga xotin bo‘lolmaydi.

Agar ayol: “Mening namozim, ro‘zam ularning (hurlarning) darajasidan ustun qiladi,” deb o‘ylasa, adashadi. Chunki ibodatlari eriga qilgan ozor sabab xabata bo‘lib ketishi mumkin. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam boshqa hadisda bundaylarni “muflis” — ya’ni tijorat qilib, so‘ng kasodga uchragan kishi singari bo‘lib qolishini aytganlar.

23-eslatma

Ayollarning yo‘lda yurish odobi

Abu Usayd al-Ansoriy roziyallohu anhu aytadilar: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam masjiddan chiqayotganlarida erkaklar bilan ayollar yo‘lda qorishib ketganini ko‘rib dedilar: “Chetroq turinglar! Yo‘lning o‘rtasidan yurish sizlarga emas. Sizlar yo‘lning chetini lozim tutinglar.”

Sahobiy aytadi: “Shundan so‘ng ayollar yo‘l chetidagi devorlarga yopishib yurishar, hatto kiyimlari devorga ilashib qolardi.” (Abu Dovud rivoyati)

Sahobiya ayollarning bu amrga itoatlarida mubolag‘ani qarang! “Erkaklarga tegib ketmasak bo‘ldi-da,” deb Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning amrini o‘zlaricha ta’vil qilmadilar.

Aslida, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ularga: “Devorga surkalib yuringlar,” demagan edilar. Lekin ular “chetda yuringlar” degan buyruqni ortig‘i bilan ado qildilar. Bizning zamonamizda esa — aksincha, erkaklar ko‘chada yurganda xijolatdan devorga yopishishga majbur bo‘lib qolmoqdalar.

24-eslatma

Dayus namozxonlar va ularning la’natlangan xotinlari

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhumo rivoyat qiladilar: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Ummatimning oxirida ‘erkaklar’ bo‘ladi. Ular tuyaning egariga o‘xshagan o‘rindiqlarga minib kelib, masjid eshiklari oldiga tushadilar. Ayollari esa kiyingan-yalang‘och bo‘ladi. Ularning boshlarida qiyshaygan tuyaning urkachiga o‘xshash soch turmaklari bo‘ladi. Ularni la’natlanglar, zero ular mal’undirlar! Agar sizlardan keyin biror ummat bo‘lsa, sizlarning ayollaringiz ularning ayollariga xizmatkor bo‘ladi, xuddi sizlardan oldingi ayollar sizlarning ayollaringizga xizmatkor bo‘lgani kabi.” (Imom Ahmad rivoyati, hasan hadis)

Bu Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning bashoratlarini biz bugun zamonamizda ko‘rib turibmiz.

- Erkaklar xotinlarini yarim yalang‘och, yoki sochlarini tuyani urkachidek qilib rumol o‘rab qo‘yib, so‘ng “egarlarda” — ya’ni mashinalarda — masjidma-masjid yuradilar.

- Xotinlarini esa “pul topasan” deb yahudiy va nasroniylarning uylariga xizmatkor qilib yuboradilar, o‘zlari esa mashinaga minib, masjiddan masjidga boraveradilar.
- Ayollari esa ishni bahona qilib, yarim yalang‘och kiyinishda davom etadilar.

Aslida esa, Islom tarixida butunlay boshqacha manzara bor edi: muslima ayollar uy bekasi, izzatda bo‘lishar, xizmatkor bo‘lib esa yahudiy va nasroniy ayollar ishlashar edi.

25-eslatma

Soliha ayol tanlashning foydalaridan

Hasan Basriy rahimahulloh aytadilar: “Makkada bo‘z sotuvchi bir tijoratchi oldiga borib, undan kiyim sotib olmoqchi bo‘ldim. U kishi qasam ichib matohini maqtay boshladi. Ko‘nglim qolib: ‘Bunaqa qasam ichadigan odamdan olmaganim yaxshi,’ deb boshqasidan oldim.”

Oradan ikki yil o‘tgach, yana shu sotuvchi oldiga keldim. Ammo u eski kabi qasam ichib maqtanganini eshitmadim. Ajablanib so‘radim: “Bir necha yil avval qasam ichib yurgan sen emasmiding? Nega o‘zgarib qolding?”

U aytdi: “Ha, men edim. Menda bir xotinim bor edi: ozroq pul topib kelsam, haqir sanardi; ko‘p topsam esa isrof qilib yo‘q qilardi. Allohning menga bir nazari tushib, uni halok qildi. Undan so‘ng boshqa ayolga uylandim. Bozorga chiqsam, yangi xotinim yoqamdan tortib: ‘Allohdan qo‘rqing! Bizga halol yedir; ozroq topsang ham biz ko‘paytiramiz; agar hech narsa topmasang, uyda ip to‘qib ishlab senga yordam beramiz,’ — der edi. Shundan so‘ng men qasam ichib maddohlik qilib tovarimni sotishni tark etdim.”

26-eslatma

Yomon ko‘rsa-da insofni unutmaslik va rashkni yutish fazli

Juvayriya onamiz Islomga kirishlaridan oldin qabila boshlig‘ining qizi edilar. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ularning qabilasiga qarshi yurish qilgach, Juvayriya qavmi bilan birga asirga tushdi. So‘ng u o‘zini asirlikdan sotib olish uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga keldi.

Juvayriya onamiz nihoyatda chiroyli edilar, ko‘rgan kishining qalbiga iliqlik soladigan husn sohibasi, yoshlari esa bor-yo‘g‘i yigirma edi.

Oisha onamiz rivoyat qiladilar: “Juvayriya Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam oldilariga kelayotganini ko‘rib, darhol ichimda yoqtirmadim. Chunki undagi chiroyni Rasulullоh ham ko‘rishlarini bilar edim. Rasulullоh oldilariga kirgach, uni ozod qilib, unga uylanishni taklif qildilar. U rozi bo‘ldi. Bu holni ko‘rgan odamlar: ‘Ular Rasulullohning qudalari bo‘ldi,’ deb o‘z qo‘llaridagi asirlarni ozod qildilar. Shunday qilib, Juvayriya sabab qabilasidan yuz xonadon ozod bo‘lib, Islomga kirdi. Bu ayolchalik qavmiga baraka keltirgan ayolni ko‘rmaganman.”

Oisha onamizning rashk va yoqtirmasliklari ularni noinsoflikka undamadi.

Aksincha, Juvayriya onamizdagi fazilatni e’tirof etib: “U qavmiga eng barakali ayol edi,” — deb sifatladilar.

Shu sabab bu voqeada yuz xonadon ozod bo‘lib Islomga kirganini ayollarning fathidan deb atash mumkin. Agar Oisha onamiz rashk alamiga berilib, Juvayriyani eshikdan quvganlarida, bunday fath sodir bo‘lmas edi.

Ozroq rashkni yutish va insofli bo‘lish evaziga, yuz oilaning hidoyat topish ajriga ega bo‘ldilar. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Alloh sen sabab bir kishini hidoyat qilsa, bu sen uchun qizil tuyalardan ham yaxshiroqdir.” (Buxoriy va Muslim)

27-eslatma

Erga itoat fazli

Jobir roziyallohu anhumo rivoyat qiladilar: “Biz Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam bilan o‘tirganimizda bir ayol kelib aytdi: ‘Yo Rasulullоh, men ayollar nomidan sizga savol bilan keldim. Erkaklarning ham, ayollarning ham Robbisi Allohdir. Odam alayhissalom erkaklarning ham, ayollarning ham otasi bo‘lsa, Havvo ham erkaklarning ham, ayollarning ham onasi bo‘lsa, va Alloh sizni erkaklarga ham, ayollarga ham Rasul qilib yuborgan bo‘lsa, unda erkaklar Alloh yo‘lida jihodga chiqib, shahid bo‘lsalar — ular Robbining huzurida tirik va rizqlantiriladilar. Jihodga chiqqanlarida yana siz bilgan ajrlarni oladilar. Biz esa ularga xizmat qilamiz, o‘zimizni ularga atab uyga hibs qilamiz. Bizga nima ajr bor?’

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: ‘Ayollarga mendan salom aytgin va ularga aytki: Albatta, erga itoat qilish mana shu narsalarning barchasiga tengdir. Lekin sizlardan buni ado qiladiganlar ham ozchilikdir.’ (Ibn Abud-Dunyo va Bazzor rivoyati)

Ibrat shuki: shari’atda ibodatlarning darajasi ularning ko‘rinishdagi kattaligi yoki hajmi bilan emas, balki har kimning zimmasiga yuklatilgan vazifani ado qilishi va uning nafsga qanchalik og‘irligiga qarab taqqoslanadi. Shu bois hadisning oxirida Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Aslida shuni qiladiganlar sizlarda ham ozchilikdir,” — deb ta’kidladilar.

28-eslatma

Hech kim birovning yukini ko‘tarmaydi

Islomni boshqa botil dinlardan farqlagan bu buyuk qoida hayotda qanday tatbiq etilganiga qarang:

Osiyo — dunyo tarixidagi eng katta to‘g‘ut va zolim bo‘lgan Fir’avnning xotini edi. Lekin Islomda u ayol: “Fir’avnning xotini-ku” deb kamsitilmadi. Aksincha, Alloh uni qiyomatgacha barcha mo‘minlarga o‘rnak qilib, zarbulmasal qildi. Alloh taolo aytadi: “Alloh iymon keltirganlarga Fir’avn xotinini zarbulmasal qildi.” (Tahrim: 11)

Qarangki, u ayolni Alloh o‘z ismi yoki otasining ismi bilan emas, balki erining ismi bilan “Fir’avn xotini” deb zikr qildi. Buning ostida go‘yo shu ma’no yotadi: “Garchi eri Islomning eng katta dushmani bo‘lsa ham, ayol soliha bo‘lsa, uni erining ismi orqali past nazar qilish yo‘q.”

Bugun ba’zi soliha ayollarga nasabi yoki eri sabab past nazar bilan: “Sen kimning bolasisan? Kimning xotinisanki?!” — deb qaraydiganlar yuqoridagi oyatdan ibrat olsin! Buning muqobilida esa: o‘zida hech qanday fazilat bo‘lmasa-da, erining obro‘si bilan “ko‘tar-ko‘tar” bo‘layotganlarga Qur’on tanbeh beradi.

Alloh taolo aytadi: “Alloh kofir bo‘lganlarga Nuh va Lutning xotinini misol qildi.” (Tahrim: 10)

Bu oyatda ham ikki payg‘ambar ismlari zikr qilinib: “Nuh va Lutning xotinlari” deb aytildi. Shunda bilinsinki: “Shunday odamning xotini ekan, qo‘ygin” deb hukmdan chetlatish yo‘q.

“Falonchining xotiniman,” degan nomi ulug‘, ammo suprasi quruq ayollarga tanbeh bo‘lsinki — erning sharafi ayolning o‘zida fazilat bo‘lsa, shundagina manfaat beradi!

29-eslatma

Takalluf ummatlarni halok qiladi

Takalluf — kishi o‘zida bo‘lmagan narsani hosil qilishga urinish, birovga o‘xshash uchun sun’iy harakat qilish demakdir.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Banu Isroilning halokatining avvali shunda edi: kambag‘alning xotini eridan kiyim-kechak, taqinchoqlarni talab qilardi. Boyning xotini eridan talab qilgandek unga yuk qilar edi (ya’ni, boshqalarga o‘xshash uchun takalluf qilardi).”

So‘ng Rasulullоh Banu Isroil ayollaridan bir misol keltirdilar: “Bir pakana ayol yog‘ochdan ikki baland poshnalik oyoq kiyim va bir qopqoqli uzuk yasattirdi. Uzukning ichiga misk to‘ldirdi. So‘ng ikki baland bo‘yli ayol orasiga kirib, (o‘zini ularga o‘xshatib) ko‘chaga chiqdi. Odamlar baland bo‘yli ayollardan kim ekanini bilib, lekin o‘sha poshnalik ayolni tanishmadi. U ayol yurganida qo‘lidagi uzukni siltab, undan atir taratar, odamlarni o‘ziga qaratardi.” (Ibn Huzayma, Imom Muslimda ba’zi qismi rivoyat qilingan, sahih hadis)

Banu Isroil tarixda juda buyuk ummat edi. Ammo bu ummatning halokati ayollardan boshlandi.

Nega? Chunki ayol uyda o‘tirib, yonidagi hamrohlariga o‘xshab kiyinish, yasanishni xohlardi. Xarajatini esa erining bo‘yniga ortar edi. Natijada erkaklar ilm olishni, dinni himoya qilishni tashlab, ertayu kech: “Xotin-bola-chaqam birovdan kam bo‘lmasin,” deb ishlab ketdi. Buning oqibatida ichki tomondan jaholat, tashqaridan esa dushman bosimi sabab bo‘lib, butun ummat halok bo‘ldi.

Bu takalluf shu darajaga yetdiki, ayollar Alloh yaratgan xilqatga qanoat qilmay, birovning xotiniga o‘xshash uchun baland poyafzallar kiyishdi. Oddiy atir sepishga qanoatlanmay, yurganda sochilib yursin deb uzukka atir solib yurishgacha bordilar.

Endi o‘ylang: yahudiy millat shunday darajaga borganda halok bo‘lgan ekan, bu ummat bugun haligacha qirilib ketmaganiga ham shukr qilish kerak! Chunki baland poshnani qo‘ying, bugungi ayollar boshqalarga o‘xshash uchun qad-qomatini ham o‘zgartirib, borini yo‘q qilib, takalluf yo‘lida hamma narsasini sarflab yuborish — oddiy hol bo‘lib qoldi.

30-eslatma

Onalar shijoati farzand yo‘lini belgilashi

Muoviya roziyallohu anhumo birovlar bilan bahslashib qolganlarida, o‘zlarini onalariga nisbat berib: “Meni onam Hind tarbiyalagan!” — deb baqirar edilar. Ya’ni, “Menda onam Hindning shijoati bor,” degan ma’noda.

Ma’lumki, Hind mushrika bo‘lgan paytida ham shijoatli va qasoskor ayol edi. Odamlar Muoviyani yoshligida ko‘rib: “Katta bo‘lsa, qavmiga bosh bo‘ladi,” desalar, onasi Hind: “Agar qavmigagina bosh bo‘ladigan bo‘lsa, onasi uni yo‘qotsin!” — der edi.

Ya’ni, faqat qavmiga emas, balki butun ummatga, boshqa xalqlarga ham bosh bo‘lsin, deb unga oliy g‘oya singdirgan edi. Haqiqatan ham, Muoviya roziyallohu anhumo boshchiligidagi xalifalik nafaqat arablarni, balki dunyo yerlarining yarmiga yaqinini o‘z ichiga olgan eng qudratli imperiyaga aylandi.

Shuningdek, Ali roziyallohu anhu ham Xandaq g‘azotida devdek kelgan mushrikni yiqitib yer tishlatganda, shijoat bilan: “Meni onam Xaydar (ya’ni arslon) deb atagan!” — deb baqirdilar. (Muslim rivoyati)

Ya’ni, Ali roziyallohu anhu tug‘ilganida onalari u kishiga “Xaydara” (Arslon) deb ism qo‘ygan, otalari esa keyinchalik “Ali” deb o‘zgartirgan edi. Shiddatli lahzada onasining bergan ismi va shijoatini yodga oldilar.

Bu ma’noga yana bir misol: mashhur imom Sufyon as-Savriy rahimahulloh. Onalari u kishiga yoshligida: “Ey bolam, sen ilm talab qilgin. Men senga ip to‘qib (sotib), yumushlaringga kifoya qilaman,” — der edilar.

Shu tarzda ip to‘qib sotib, Sufyonni o‘qitib, ulug‘ imom qilib yetishtirdilar. Onalari unga doim nasihat qilib aytar edilar: “Agar o‘nta hadis yozsang, o‘z nafsingga bir qaragin: Allohdan qo‘rqishing, halimlik va viqoring ziyoda bo‘ldimi, yo‘qmi? Agar bunday bo‘lmasa, bilgilki, bu hadislar senga foyda emas, zarar bo‘ladi.”

31-eslatma

Uyda buxgalterlik qiladigan ayol — xonadondan barakani uchiradi

Aisha (roziyallohu anhumo) aytadilar: Bir kuni Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) bilan uyda o'tirganimda, bir tilamchi kelib narsa so'radi. Shunda unga bir narsani olishni buyurdim. So'ngra uni chaqirib, nimani olganiga bir qaradim. Shu payt Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) menga dedilar: "Sen uyingga nima kirsa ham, nima chiqsa ham, albatta hammasini bilib turishni istaysanmi?" Men: "Ha", dedim. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Shoshma, ey Aisha! Sen hisob-kitob qilavermagin, Alloh ham senga hisob bilan (ya'ni qattiq hisob-kitob qilib) beradi." (Imom Nasaiy rivoyati)

Demak, uydagi kirim-chiqimlarni hisob qilish qadimdan ayollarda bo'lgan xislat, shuning uchun Aisha onamiz "Ha" deb javob berdilar. Lekin bu xislat haddan oshib, ayol uyni go‘yo "buxgalteriya idorasiga" aylantirib yuborsa, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) bundan qaytarib: "Hamma kirim-chiqimlar sening nazoratingostida bo‘lishini istaysanmi?" — deb ogohlantirdilar.

Agar vaziyat shu darajaga borsa, ayol uydan barakaning uchishiga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki hisoblayveradiganga Alloh taolo ham hisob-kitob qilib qo‘yadi.

32-eslatma

Johilona to'y-tantanalar xatari

Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Bu ummatda yer yutish, qiyofa o‘zgarib (maxluqqa aylanib) qolish va samodan tosh yog‘ishi sodir bo‘ladi."

Shunda bir sahobiy: "Bu qachon, yā Rasulullоh?" — dedilar. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) dedilar: "Qachonki qo‘shiqchi ayollar, karnay-surnaylar zohir bo‘lsa va aroqlar ichilsa." (Tirmiziy rivoyati)

Boshqa hadisda aytiladiki: "Muḥammad (sallallohu alayhi vasallam)ning (alayhissalom) nafsi qo‘lida bo‘lgan zotga qasamki, ummatimdan bir odamlar manmansirab, kibr bilan, o‘yinqulgi bilan tunda uxlashsa, ertalab turib maymun-to‘ng‘izga aylanib qolgan bo‘lardilar! Sababi: harom narsalarni halollab, qo‘shiqchi ayollarni tutib, aroqlar ichib, ribo yeydilar va (erkaklar) ipak kiyadilar." (Imom Ahmad rivoyati)

Hadislarga sharh yozgan Ibn Taymiyya (rahimahulloh) aytadilar:

"Hadislardan ko‘rinib turibdiki, ularni yer yutib, qiyofalari buzilib ketishining sababi — ular xiyla yo‘li bilan bo‘lmag‘ur ta’villar (bahonalar) qilib, harom narsalarni halollab oladilar; va shariatni bu narsalarni haromdan halol qilish maqsadidan yuz o‘giradilar. Shuning uchun ularni maymun-to‘ng‘izlarga aylantirib qo‘yiladi." (Fataval-kubro)

Bugungi odamlarga o‘xshab: "To‘y-da endi bir o‘ynabmiz" yoki "Yomon ma’nodagi qo‘shiq emas-ku" kabi bahonalar bilan bu narsalarni halollab olishadi. Shariat bilan o‘ynashish oqibatidan ularga tavba qilishga ham imkon berilmay, yer yutadi yoki maymun-to‘ng‘izga aylanadilar.

33-eslatma

Bolalarni yolg‘onga o‘rgatmang

Abdulloh ibn Umayr (roziyallohu anhu) aytadilar: Bir kuni (yoshligimda) onam meni chaqirib: "Mana kel, bir narsa beraman", — dedilar.

O‘sha paytda Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) bizning uyimizda edilar. Shunda onamdan so‘radilar: "Nima bermoqchi eding?" Onam: "Xurmo bermoqchi edim", — dedilar. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) dedilar: "Agar unga (hech narsa) bermaganingda edi, bu ishingdan senga yolg‘on gunohi yozilar edi." (Abu Dovud rivoyati)

Hadis sharhida, Avnul-Ma’bud kitobida aytiladi: "Hadisda dalil borki, odamlar bolani yig‘laganda yupatish uchun, yoki o‘yin-kulgi qilib hazillashib biror narsa beraman deb aldash, yoki uni biror narsadan qo‘rqitib chalg‘itish harom bo‘lib, bu yolg‘on hukmiga kiradi."

Bugungi "xayoliy shaxsiyatlar", jumladan Qorbobo, O‘rgimchak odam va shunga o‘xshash obrazlar bilan bolalarni ovutish, yoki aksincha, "yalmog‘iz kampir" singari yovuzlik ramzi qilingan xayoliy timsollardan qo‘rqitish ham yolg‘onchilikdir.

Bu esa bolaning ota-onaga bo‘lgan ishonchini bevosita yemiradi. Natijada, ertaga ulg‘ayganda hayotda ham xomxayolga berilib, qorbobo yoki uchar odam kelib yordam berishini kutib yashaydigan bo‘lib qoladi. Bu "xayoliy shaxsiyatlar"dagi yetib bo‘lmas kuch esa bolaning hafsalasini pir qilib, umidsizlikka soladi.

Halbuki, bizning tariximizda bunday xomxayollardan behojat qiladigan, haqiqiy shaxsiyatlar yetarlicha. U zotlar bolalarning hayotiga erishsa bo‘ladigan g‘oya va orzularni kirita oladilar. Alloh taolo aytadi: "Sizlar shunday yaxshi narsalarni bo‘lmag‘ur past narsalarga almashtirasizlarmi?" (Baqara, 61)

Va qachonki oliy narsalarni past narsalarga almashtirsak, jazo shuki: "Ularga xorlik va faqirlik (uqubati) solindi." (Baqara, 61)

34-eslatma

Qiz bolani tarbiyalash fazli

Alloh taolo aytadi: "Osmonlar va yer mulki Allohnikidir. U xohlagan narsasini yaratadi. Xohlagan kishilariga qiz ato qiladi, va xohlaganlariga o‘g‘il." (Shuro: 49)

Vosila ibn al-Asqo (roziyallohu anhu) aytadilar: "Qiz bolaning barakasi sababli oyatda u o‘g‘ildan avval zikr qilindi." (Qurtubiy tafsiri)

Aisha onamiz (roziyallohu anho) rivoyat qiladilar: Bir ayol ikki qizi bilan tilamchilik qilib keldi. Menikida esa bir dona xurmodan boshqa narsa topilmadi. Shunda xurmoni ikki qiziga bo‘lib berib, o‘zi hech narsa yemay chiqib ketdi. Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam) kirib kelganlarida bu voqeani xabar qildim. U zot dedilar: "Kimki mana shu qizlardan birortasi bilan imtihon qilinsa, albatta ular unga jahannamdan satr bo‘ladi." (Imom Buxoriy)

Hadisdagi "imtihon qilinsa" degan jumladan ko‘rinadiki, kishi qiz tug‘ilganda siqilib nolishi ham, yoki bundan xursand bo‘lishi ham bandaga imtihon bo‘ladi. Boshqa hadisda aytiladi: "Kimning uch qizi bo‘lsa, ularga odob berib, rahm-shafqat qilib, ularni kafillikka olsa, unga albatta jannat vojib bo‘ladi."

Shunda aytildi: "Ya Rasulullоh, ikki qiz bo‘lsa-chi?" U zot dedilar: "Ikki qiz bo‘lsa ham." Ba’zilar o‘yladilar: "Agar bitta bo‘lsa-chi?" deyilsa, albatta Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) "Bitta bo‘lsa ham", degan bo‘lardilar. (Imom Ahmad rivoyati)

Demak, bu rivoyatlardan ko‘zda tutilgan maqsad — qizlarni faqat yedirib-ichirib, turmushga berishgina emas. Balki hadisda aytilganidek, ularga odob berish, ulug‘ tarbiya va ta’lim berish, hamda qiz tug‘ilganda siqilib or qilmaslik bilangina yuqoridagi ajrlarga erishiladi.

35-eslatma

Tortishuv ayollik sifati emas

Mushriklar farishtalarni Allohning qizlari deb bo‘hton qilganda, bunga javoban Alloh taolo aytadi: "Zebu-ziynat ichida o‘stiriladigan va yana tortishuvda (o‘z haqini) bayon qilib bera olmaydigan (ayol zotini Allohga nisbat berasizlarmi?)" (Zuxruf: 18)

Demak, "tortishuvda haqini to‘liq ajrata bilmaslik" — aslida ayol sifati. Shovqin ko‘tarib, janjal qilib, hammadan haqini undirib olishni “o‘tkirlik” sanash ayol uchun maqtovli sifat emas! Aksincha, bu tabiiy ayollik xilqatidan chiqish demakdir.

Lekin bunday “o‘tkirlik” o‘rniga Alloh taolo ayolga boshqa bir qurol berdi. Oyatga qarang: "Zebu-ziynat ichida o‘stiriladigan."

Ayol, xususan, eridan haqlarini talab qilishda ziynati va chiroyi bilan erishmoqligi unga ko‘proq foyda keltiradi. Buning tasdig‘i Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) so‘zlarida keladi: "Sizlarga jannat ahlidan bo‘lgan ayollarni xabar qilaymi? Ular muhabbatli, serfarzand ayollar. Ularga (erlaridan) zulm qilinsa yoki ular (erlarga) zulm qilib qo‘yishsa, aytishadi:

'Mana, peshonam qo‘lingizda! Siz rozi bo‘lmaguningizcha ko‘zimga uyqu tatimaydi.'" (Nasaiy rivoyati)

Hadisdan ko‘rinib turibdiki, hatto zulm ko‘rsa ham, o‘tkirlik qilmay, erining ko‘ngliga kirishga harakat qiladigan ayollar jannat ahlidan bo‘lish bilan sifatlanadi. Chunki Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Kim haq bo‘lsa-da, talashuvni tark qilsa, men unga jannatning markazidan bir uyga kafilman." (Abu Dovud)

"Haqqimni ber!" deb talashib-tortishib nimagadir ega bo‘lish mumkin, lekin qalb boy beriladi. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) dedilar: "Ixtilof qilmanglar, qalblaringiz ham ixtiloflashib qoladi." (Imom Muslim)

36-eslatma

Birovlarning obro‘sidan tilni tiya olmaslik nimadan?

Oisha onamizga munofiqlar tomonidan fitna va bo‘hton qilinganda, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) Zaynab onamizdan bu haqda so‘radilar: "Sen (Oisha haqida) biror narsa eshitdingmi? Yoki biror narsa ko‘rdingmi?" Zaynab onamiz dedilar: "Yo Rasulullоh! Men (qulog‘im eshitmagan, ko‘zim ko‘rmagan narsadan) qulog‘imni ham, ko‘zimni ham himoya qilaman. Allohga qasamki, men (Oishada) yaxshilikdan boshqasini bilmayman!"

Oisha onamiz aytadilar: "Holbuki, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning ayollaridan menga bellashadigan ayol aslida u edi. Lekin Alloh uni taqvosi sabab (menga tuhmat qilishdan) asrab qoldi." (Buxoriy va Muslim rivoyati)

Ya’ni, Zaynab onamiz garchi kundoshi va raqobatchisi bo‘lsa ham, bu fursatdan foydalanib Oisha onamizni badnom qilmadi. Aksincha: "Yaxshilikdan boshqasini ko‘rmaganman", — deb guvohlik berdi.

Aslida, kundoshi va raqibidan qutulish payida yuradigan qalbi qora ayol uchun bu juda yaxshi imkon edi. Lekin taqvo qalbini asradi.

Bugun esa, ko‘p ayollarda na kundoshi, na raqibi bo‘lsa ham, birovlarning oilasiga qiziquvchanlik qilib, ularning muammolarini yurt bo‘ylab tarqatish, badnom qilish — qalb qorayib, betaqvo bo‘lib ketganidan dalolat beradi. Chunki qalbda taqvo bo‘lsa, hatto raqibining obro‘siga ham, ko‘zi bilan ko‘rmagan, qulog‘i bilan eshitmagan narsani gapirishdan qo‘rqilar edi. Alloh taolo aytadi: "O‘zing bilmagan narsangning ortidan ergashma! Albatta, quloq, ko‘z va qalb — bularning barchasi undan mas’uldir." (Isro: 36)

Shuningdek, yig‘inlarda oddiygina aytilib ketadigan gaplarning og‘irligidan ogohlantirib, Alloh taolo deydi: "O‘shanda sizlar uni (buhtonni) tillaringizda olib yurar edingiz va og‘izlaringizda o‘zingiz bilmagan narsani gapirar edingiz, uni arzimas deb sanar edingiz. Holbuki, u gap Allohning nazdida og‘ir gunohdir." (Nur: 15)

37-eslatma

Muhabbatni ziyoda qilmoqchi bo‘lsang, kam-kam ziyorat qilgin

Bu so‘z arablar orasida mashhur maqollardan bo‘lib, hatto ba’zi ulamolar uni hadis kitoblariga ham kiritib yozganlar. (Taboroniy, Bazzor, Ibn Hibbon va boshqalar. Alboniy uni sahih degan.)

Ayolning eriga haddan tashqari yaqin bo‘lib ketishi, unga zulukdek yopishib olishi — ba’zan er oldidagi hurmatini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Ulamolar aytadilar: "Do‘stingni kam-kam ziyorat qilgin, yangi libosdek uni xursand qilasan. Zero, kishiga eng malol narsa — qarshisida doim bir xil manzara turishidir!"

Ayol erining uni yaxshi ko‘rishiga ishonib, "unga malol kelmayman" deb o‘ylamasin. Chunki hatto Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) uchun eng suyukli zot Alloh taolo ham gohida vahiyni uzib, u zotning ishtiyoqini ziyoda qilardi. (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati)

Ibn Hajar (rahimahulloh) aytadilar: "Sha’biy deydi: Vahiy Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan uch yil uzilib qoldi."

Ibn Kasir (rahimahulloh) esa: "Ikki yil yoki undan ziyoda," deganlar.

Holbuki, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) vahiyni malol ko‘rmas edilar, lekin ayriliq muhabbatni aslida ziyoda qilar edi. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) ayollariga navbat bilan to‘qqiz kunda bir borar edilar. Shuning uchun ular bilan Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) o‘rtasida doim intiqlik bo‘lardi. Hattoki Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) Aisha onamiz kuniga intiqib: "Bugun men kimnikidaman?" — der edilar.

Jamiyatimizda esa, ba’zi ayollar eriga zulukdek yopishib, nafaqat boshqa ayoldan, balki erining ishidan ham qizg‘anib, oxir-oqibat uni bezor qiladilar.

Shuningdek, ko‘pxotinlik ham hech qachon erkakni ayolidan uzoqlashtirmaydi. Buni tushunmagan ayol esa, yolg‘iz bo‘lsa-da, erkakning erkasi bo‘lsa-da, shirin hayoti uzoq cho‘zilmaydi. Oxir-oqibat eridan malollangach, ayolning o‘zi unga: "Siz o‘zgardingiz" — deb, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushadi.

38-eslatma

Ayol uyining fitnalari bilan kurashadi, ummat fitnasi bilan emas

Bugun ummatning katta fitnalari — jamoatlar, firqalar, mazhablar yoki shaxsiyatlar haqida ba’zi ayollarning aralashib, ijtimoiy tarmoqlarda tortishayotganini ko‘rib, Abu Bakra (roziyallohu anhu)ning hadislari yodga keladi: "Men Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan eshitgan bir so‘z bilan Alloh menga Jamal kunida foyda berdi. Chunki men ham oz qolgandi, Jamal sohiblariga qo‘shilib urushmoqchi edim! Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan eshitgan edim: 'Ishlarini ayolga topshirgan qavm hech qachon yutuqqa erishmaydi.' Forsliklar Kisroning qizini o‘zlariga bosh qilib olganlari xabari kelganda shu gapni aytgan edilar." (Sahih Buxoriy)

Ya’ni, Aliy va Muoviya (roziyallohu anhumo) o‘rtasida bo‘lgan fitna "Jamal" (ya’ni tuya) kuni deb atalgan edi. Bu fitnada Oisha onamiz, o‘zlarining musulmonlar qalbida o‘rni borligini bilib: "Men chiqsam, musulmonlar sulhga kelishar", degan niyat bilan tuya minib chiqqan edilar.

Lekin hayhot! Sal qolganda, u kishiga ham shikast yetar darajada urush bo‘lib ketdi. Shunda Abu Bakra (roziyallohu anhu) Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning yuqoridagi hadislarini eslab, fitnadan chetda qoldilar.

Endi o‘ylang: bugungi ayollar qayerda-yu, mo‘minlar onasi, olima, jannatiy, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning eng suyukli ayoli, Siddiqa bintu Siddiq qayerda?!

Umrida biror kitobni to‘g‘ri o‘qimagan, nafsini g‘iybatdan tiyishni o‘rganmagan, hatto oddiy ko‘pxotinlik hukmiga ham qalbi ochilmagan ayollar bugun ummat firqalari va zamondosh diniy shaxsiyatlar haqida tahlil qilib fikr bildirishmoqda!
Agarchi da’volari Aisha onamiz da’vosidek isloh bo‘lsa edi, gap boshqa edi. Ammo ko‘plar aslida shaxsiy nafrat, alamzadalik yoki tarafkashlik sabab bu muammolarga bosh suqmoqdalar.
Oisha onamiz yo‘lda Hav’ab degan suv oldiga yetganlarida itlarning hurishini eshitdilar. Shunda: "Bu qanday suv?" — dedilar. Odamlar aytishdi: "Hav’ab suvi." Oisha onamiz aytdilar: "Men orqaga qaytishdan boshqa narsa o‘ylamayapman.

Chunki Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan eshitgan edim: 'Hali birlaringga Hav’ab itlari hursa, holbuki o‘ngida ham o‘liklar, chapida ham o‘liklar bo‘ladi. O‘zi esa qilgan ishidan keyin najot topib ketsa uning holi qanday kechar ekan?!'"

Shunda onamiz bu yo‘lga chiqqanlariga afsus qildilar.

39-eslatma

Qizim baxtli yashasin desang, kuyovga yukni ko‘paytirma

Ba’zi ota-onalarda uchraydigan xatolardan biri shuki — qizi ozroq qiynalib, oh-voh chekkanini ko‘rib, alam qilib: "Eringga ayt, olib bersin, qilsin-da, vazifasi bo‘lgandan keyin!" — degan gaplarni eshitasiz.

Ayol ham bu ta’sir ostida eriga talabni ko‘paytirib boradi. Oxir-oqibat hamma narsaga erishadiyu, lekin eng asosiy narsani — eri oldida o‘zining va ota-onasining hurmatini yo‘qotib qo‘yadi.

Chunki Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytganlar: "Beruvchi qo‘l, oluvchi qo‘ldan afzal bo‘ladi." (Buxoriy va Muslim)

Oila bozor singari "Mening haqqim — sening haqqing" degan hisob-kitob mas’uliyatlari ustiga emas, balki fazilat va sahovat ustiga quriladi.
Shuning uchun ayol va uning oilasi, o‘zlariga vojib bo‘lmasa-da, ro‘zg‘orning ba’zi kamchiliklarini to‘ldirib turishlari aslida lozimdir. Buning tasdig‘ini Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) va qizlari Fotima onamiz hayotidan ko‘ramiz:

Fotima (roziyallohu anho) Aliy (roziyallohu anhu)ga turmushga chiqqanlaridan so‘ng, uy ishlari va don maydalab un qilishdan charchab, qo‘llari qavarib, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) oldilariga xizmatkor so‘rab keldilar.

Ammo Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam): "Ering qayerda? Eringga ayt, olib bersin" — demadilar!

Bir xizmatkor berib, muammoni osongina hal qilib qo‘yish o‘rniga, ularning oldilariga borib dedilar: "Sizlarga undan-da yaxshi narsa o‘rgataymi?" — deb, uyqudan oldingi zikrlarni o‘rgatib keldilar. Lekin, "Bu eringning vazifasi," deb aytmadilar. (Buxoriy va Muslimda kelgan qissa)

Chunki hamma mushkul ishlarda qulaylikni muhayyo qilib berish bilan ishlar hal qilinmaydi. Ba’zi muammolarda chidash, sabr qilish — foydaliroq yechim bo‘ladi.

40-eslatma

Dunyo matohi safidan chiqib, boqiy solihalar safiga qo‘shiling

Alloh taolo Qur’onda dunyo matohlarini sanab, ularning eng avvalida ayollarni zikr qiladi: "Insonlarga ayollar, bolalar, to‘p-to‘p tilla-kumushlar, chiroyli otlar, chorva hayvonlari va ekin-tikinlardan iborat shahvatlar muhabbati ziynatli qilib qo‘yildi. Ularning barchasi dunyo hayotining matohidir." (Oli Imron: 14)

Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) esa fitnalarni zikr qilib, eng yomonini ayol deydilar: "O‘zimdan keyin erkaklarga ayollarchalik zararli fitna qoldirmadim." (Buxoriy va Muslim)

Endi savol: ayol qanday qilib "matoh" yoki "fitna" nomi ostidan chiqa oladi? Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) dedilar: "Dunyo bir matohdir, uning eng yaxshi matohi esa soliha yoldir." (Imom Muslim)

Demak, ayolga solihalik sifati qo‘shilishi bilan oddiy matohlikdan chiqib, yaxshi matohga aylanadi.

Agar uning solih amali eriga ham ta’sir qiladigan darajaga yetsa, endi uni umuman "dunyo matohi" deb emas, balki oxiratda boqiy qoladigan amallar safida zikr qilinadi.

Savbon (roziyallohu anhu) aytadilar: Tilla-kumushni xazina qilib yig‘ishdan qaytaruvchi oyat nozil bo‘lgach, sahobalar: "Endi qanday molni jamlasak bo‘lar ekan?" — deb o‘ylashdi.

Shunda Umar (roziyallohu anhu): "Men sizlarga bilib kelaman," — deb Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan so‘radilar. Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) dedilar: "Birlaringiz shukr qiluvchi qalb, zikr qiluvchi til va o‘zining oxirat ishlariga yordam beradigan solih a y olni jamlasin." (Termiziy)

Demak, solih a y ol zikr va shukr kabi oxirat amallari safida zikr qilindi. Yana Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Alloh bir ayolni rahm qilsinki, kechasi turib namoz o‘qisa va erini ham namozga uyg‘otsa, agar (eri) turishga unamasa, hatto yuziga suv sepib uyg‘otsa." (Imom Ahmad)

Alloh taolo aytadi: "Mol-dunyo va bola-chaqalar — dunyo ziynati.

Boqiy qoladigan solihotlar esa Robbingiz huzurida savob va orzu qilinishi jihatdan yaxshidir." (Kahf: 46)

Agar ayol bu sifatlarni egallamasa, dunyoda erkaklarga ovunchoq buyumdek matoh bo‘lib qolayotganiga aslida ajablanmasin.

41-eslatma

Ayollarning Ramazondagi ajrlari

Ramazon oyida ayollarning ajru-savob hosil qilish imkoniyatlari erkaklardan ko‘ra ko‘proq desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Faqat buning uchun ayol “ihtisob” — ya’ni amalini shunchaki vazifa sifatida emas, ajru-savob umidida, ochiq ko‘ngil bilan, bezor bo‘lmasdan bajarishi lozim!

Ibn Qayyim (rahimahulloh) aytadilar: "G‘aflatdan uyg‘oq kishilarning odatiy ishlari ham ibodat bo‘ladi. (Ajru-savob niyatidan) g‘ofil bo‘lganlarning esa ibodatlari ham odat bo‘lib qoladi." (Miftahu Daris-Sa’ada)

Shuning uchun Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) Ramazon ro‘zasi va tungi namozlari haqida: "Iymon va ajr umidida qilsa, mukofoti — o‘tgan gunohlari mag‘firat qilinadi," — deganlar. (Buxoriy va Muslim)

Demak, ayol Ramazonda:

1. Ro‘za tutish ajri;
2. Uy ishlarini qilib eriga xizmat qilish ajri;
3. Ro‘zadorlarga iftor qilish ajriga ega bo‘ladi.

Bularning barchasini odatiy vazifa deb emas, ixlos bilan ajr niyatida qilishi lozim.

Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Kim bir ro‘zadorga iftor qilib bersa, unga shu ro‘zadorning mislidek ajr yoziladi. U ro‘zadorning ham ajridan biror narsa kamaytirilmaydi." (Buxoriy va Muslim)

Demak, ayolga har kuni ikki kun ro‘za ajri yoziladi! Agar u kundalik vazifalari (pishirish, tozalash) davomida tili zikr, istig‘for va salovotda bo‘lsa, bu holatda ibodatlar ichma-ich bo‘lib, ayol ajrlarga ko‘milib ketadi. Endi bunga Ramazonda ajrlarning ziyoda qilinishi qo‘shilsa-chi?!

Ibrohim an-Naxoiy aytadilar: "Ramazonda bir dona tasbeh aytish, boshqa oylarda ming tasbehga tengdir." Hatto ayol uzrli (hayz) vaqtini ham: “Ro‘za va namozdan qutuldim,” deb emas, aksincha: “Alloh buyurganda hozir ham ibodatda bo‘lardim,” deb qabul qilsa, bu kunlari ham boshqa kunlari singari to‘la ajr yoziladi.

Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Agar banda kasal yoki musofir bo‘lsa, unga muqim va sog‘lom paytidagi odatiy amallari yoziladi." (Sahih Buxoriy)

Albatta, uzrli holat ham kasallik hukmidadir. Bu holatdagi ayolning savobini ziyodalashtirish ham mumkin! Chunki uzrli holat zikr qilishni va Qur’on o‘qishni (ushlamasdan) man qilmaydi.

Ibn Taymiyya (rahimahulloh) aytadilar: "Hayzli ayolni qiroatdan man qilgan ochiq sahih dalil yo‘q. Ma’lumki, Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) zamonida ham ayollar hayz ko‘rardilar, ammo ularni bundan qaytarmaganlar. Shuningdek, zikr va duodan ham qaytarmaganlar." (Majmu’ul-Fatava)

Odatni ibodatga aylantiring, va bu ajrlarga ko‘milishdan mahrum bo‘lmang!

42-eslatma

Ayol erini deb Allohning amriga qarshi ish qilmasligi

Islom avvalida ro‘za faqat kunduzi emas, balki tunda ham davom etar edi. Agar kishi iftordan so‘ng uxlab qolsa, endi kelasi iftorga qadar unga ayoli va yeb-ichish harom bo‘lardi.

Bir tunda Umar (roziyallohu anhu) kelib, ayolidan to‘shak talab qildilar. Ayoli: "Men xuftondan keyin uxlab turdim," — dedi. Umar (roziyallohu anhu) esa: "Sen uxlamagansan, bahona qilayapsan," — deb, ayoli bilan birga bo‘ldilar. Shunda oyat nozil bo‘ldi: "Sizlarga ro‘za kechalarida ayollaringiz bilan yaqinlik qilish halol qilindi. Ular sizlarga libos, sizlar ularga libosdir. Sizlar (er-xotin yaqinlik qilib) o‘z nafslaringizga xiyonat qilayotganingizni Alloh bildi. So‘ngra tavbangizni qabul qildi va sizlarni afv etdi." (Baqara: 187)

Allohning hukmiga xilof qilib erga itoat qilish — “o‘z nafslariga xiyonat” deb nomlandi. So‘ngra mo‘minlarga mashaqqat bo‘lmasin deb, bu hukm yengillatildi va tungi ro‘za batamom bekor qilindi.

Ayol eriga “libos”, er ham ayoliga “libos” — ya’ni satr deb nomlanganining sababi shundaki, er-xotin birgalikda Allohning hukmlariga zid amal qilib, nafslariga xiyonat qilmasligi, balki bir-birlariga Allohning azobidan satr bo‘lishlari, buyruqlariga xilof ishda esa bir-birini qaytarishlari lozim. Chunki, agar libos kishini issiq-sovuqlardan asramasa, uning nima keragi bor?

Ramazon ro‘zasidagi bu hukm orqali yilning boshqa vaqtlarida ham ayol erini, er esa ayolini shariatga xilof ishga sabab qilmasligi kerakligi ta’lim berildi.

Chunki erini shariatga xilof ishga undash — ayollarda ko‘p uchraydigan xislat. Eng birinchi bo‘lib bu holat Xavvo onamizda ham ko‘ringan edi.

Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Agar Xavvo bo‘lmaganida, ayol eriga xiyonat qilmas edi." (Buxoriy va Muslim)

Ya’ni, Xavvo onamiz jannatda qaytarilgan mevadan yeb, Odam (alayhissalom)ni ham bunga undaganlari “erga xiyonat” deb qaraldi.

43-eslatma

Er-xotin rag‘batlarida bir-biriga uzr berishi

Erkak va ayolning hayotdagi rag‘bat va qiziqishlari xilma-xilligi sababli, bir-birini to‘liq tushunishi ham qiyinlashadi. Gohida bu hatto urush-janjalga ham sabab bo‘lishi mumkin. Hattoki, shu rag‘batlarga qarab, shariatdagi dalillarni tushunishda ham ular o‘rtasida tafovut kelib chiqadi.

Shunday ekan, erkak va ayol o‘zlarining tabiati va rag‘batidan kelib chiqib ish tutsalar, sherigi ham o‘z tabiati asosida harakat qilayotganini qabul qilsa — aslida hamma muammo tugaydi.

Buni bir hadisdan ko‘raylik: Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) Jobir (roziyallohu anhu)ga aytdilar: "Sizlarda (uylaringizda) gilamlaringiz bormi?" Jobir aytdilar: "Bizda qayerdan gilam bo‘lsin, ya Rasulullоh!"

Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) dedilar: "Ammo (bir kun kelib) sizlarning gilamlaringiz bo‘ladi." Jobir (roziyallohu anhu) aytadilar: "Mana bugun men ayolimga 'gilamingni uzoqroq qilgin (yo‘qotgin)' desam, u menga Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam): 'Bir kun gilamlaring bo‘ladi', deganlar-ku, deb hujjat qiladi." (Buxoriy rivoyati)

Jobir (roziyallohu anhu) Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning "gilamlaringiz bo‘ladi" degan so‘zlarini — dunyoga berilishdan ogohlantirish tarzida tushunib, uyida bu narsalar bo‘lishini yoqtirmas edilar. Ayollari esa, ayni shu so‘zni hujjat qilib: Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) bunga ijozat berganlar, deb tushunar edilar.

Demak, ayol dalil keltirib haqqini talab qilishi joiz. Lekin keltirayotgan dalilini gohida o‘zining rag‘batiga moslab tushunib qo‘yishdan ogoh bo‘lishi kerak.

Chunki yuqoridagi qissada Ibn Hajar (rahimahulloh) aytadilar: "Bu ayol Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam) iqror qilganliklarini dalil qilishi mumkin. Lekin kelajakda bo‘lishi aytilgan narsalarning hammasi ham ijozat berilgan bo‘lavermaydi."

Shunga qaramay, ayol Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)dan hujjat keltirgach, Jobir (roziyallohu anhu) qattiq hukmda turib olmasdan, ayolining istagiga uzr berdilar.

44-eslatma

Ochlik bilan yolg‘onni jamlamanglar

Ibnu Mojah rahimahulloh aytadilar: “Men Ali ibnu Muhammad oldiga kirdim. Uning huzuriga yangi pishgan o‘rik olib kelindi. Men endi xastalikdan tuzalib, oyoqqa turgan edim. Meni mevaga chaqirganda: ‘Ishtaham yo‘q’, dedim. Shunda u kishi aytdi: ‘Sen yaqinda kasaldan tuzalgan bo‘lsang, bu yangi pishgan meva, qanday qilib ishtahang bo‘lmaydi?! Yaqinroq kel, yegin’ — deb quyidagi hadisni aytib berdi:

Asmo bintu Yazid aytadilar: “Rasulullоh alayhissalomga ovqat keltirilganda bizga ham taklif qildilar. Shunda biz: ‘Ishtahamiz yo‘q’, dedik. Shunda Rasulullоh alayhissalom aytdilar: ‘Ochlikka qo‘shib yolg‘onni ham jamlamanglar!’” (Ibnu Mojah rivoyati)

Demak, kishi o‘zi istab turgan narsasini uyalib yoki nozlanib “xohlamayman” deyishi bilan, nafaqat o‘zini mahrum qiladi, balki qo‘shimcha ravishda yolg‘on gapirish gunohini ham yelkasiga ortadi.

Bu uslub, ya’ni his-tuyg‘ularni yashirish yoki ortiqcha noz qilish, ko‘pincha ayollarda uchraydigan holat.

Masalan:

- Turmush o‘rtog‘iga yoki yaqinlariga bo‘lgan mehrini berkitib, sog‘inib tursa ham “sog‘inmadim” deyishi,
- Yaxshi ko‘rsa-da “seni yaxshi ko‘rmayman” deb aytishi,
- Istagan narsasini ichida orzu qilib turib, “istamayman” deb nozlanishi.

Bularning barchasi nafsni mahrum qilish bilan birga, behuda yolg‘onchilik, so‘ngra orqasidan g‘iybat, ranjitish va boshqa ko‘plab yomonliklarga yo‘l ochadi. Shu bilan birga, unga mehr va iltifot ko‘rsatganlarning ham hafsalasini pir qiladi.

45-eslatma

Ayolning eriga muomalasi — farzandining unga muomalasidan darak beradi

Oisha raziyallohu anhumo aytadilar: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘radim:

— “Ayol kishining ustida eng haqli kishi kim?”

— “Eri,” dedilar.

Yana so‘radim:

— “Erkaklarning ustidagi eng haqqi ko‘p kishi kim?”

— “Onasi,” dedilar! (Bazzor rivoyati)

Allohning dinidagi ajoyib bog‘liqlikka qarang! Ayol ustidagi eng haqli kishini “eri” deb xabar qilgach, bunga evaz qilib ayollarga ham ulkan imtiyoz berdi. Qachonki ayol ona bo‘lgach, eriga qilgan xizmati sababli uni o‘g‘illari ustida eng haqli kishi qilib qo‘ydi.

Hatto, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam “Uch marta onangga yaxshilik qil, so‘ngra otangga” deb, onani otadan ham ustun qo‘ydilar. Bu — ayolning eriga qilgan xizmatiga dunyoda berilgan mukofot va islom adolatining yorqin ko‘rinishidir. Oxiratda esa eriga qilgan sadoqatli xizmati sabab unga jannat va’da qilingan.

Ammo qachonki ayol erining haqqida nuqsonga yo‘l qo‘ysa, buning muqobilida uning eng haqli bo‘lgan farzandi ham kelajakda ona haqqida nuqsonga yo‘l qo‘yadi. Chunki jazo — kishining amali jinsidan bo‘ladi.

- Eriga injiqlik qilgan ayolning bolasi ham unga injiqlik qiladi.
- Eriga qaysarlik qilgan ayolning bolasi ham unga qaysarlik qiladi.
- Erining injiqligiga sabr qilgan ayolning bolasi esa, u qariganda uning injiqligiga sabr qiladi.

Va hokazolardan darak bo‘ladi. Demak, ayol ustidagi eng katta haqni ado qilmasa, oxir-oqibat uning ham boshqalar ustidagi eng katta haqqi ado qilinmaydi.

46-eslatma

Sovchingizning qaysi xislatiga qiziqasiz?

Sufyon ibnu Uyaynaning oldiga jiyani kelib dedi:

— “Amaki, siznikiga sovchi bo‘lib keldim!”

Sufyon rahimahulloh so‘radilar:

— “Kimga?”

Yigit aytdi:

— “Qizingizga!”

Shunda Sufyon:

— “(Qizimga) yaxshi tengdoshsan, o‘tirib 10 ta hadis rivoyat qil-chi?” — dedi.

Ammo yigit aytolmadi.

Sufyon:

— “Unda 10 oyat o‘qib ber!” — dedilar.

Yigit buni ham uddalay olmadi.

Sufyon:

— “Hech bo‘lmasa, 10 bayt she’r aytib ber!” — dedilar.

Buni ham eplay olmadi.

Shunda Sufyon rahimahulloh aytdilar:

— “Na qiroat, na hadis, na she’r bilmasang, qizimni senga nima evaziga beraman?!” (Bustanul-a’rifin)

Nazari qisqa, tor fikrli kishilarga: “Bular bilan qorin to‘yardimi?” degan xayol kelmasligi uchun Alloh taolo marhamat qiladi:

O‘zlaringizdan jufti yo‘qlarni, solih qul va cho‘rilarni nikohlanglar! Agar ular faqir bo‘lsalar, Alloh o‘z fazlidan ularni boy qilib qo‘yur.” (Nur: 32)

Demak, solihlik — rizqning eng muhim va kafolatlangan sabablaridan biridir. Bu xislat bo‘lmagan boylik esa vaqtinchalik chiroyli libosga o‘xshaydi: uni kiyib yurgan odam aslida o‘ziniki bo‘lmagan narsaning soyasida yurgan bo‘ladi. Chunki birovning mol-mulki bilan sharaf orttirib yurgan kishi uni har lahzada egasi talab qilishi mumkin.

47-eslatma

Ayollar dajjol fitnasiga tayyormi?

Ma’lumki, hadislarda dajjolga eng avval va eng ko‘p ergashuvchilar ayollar bo‘lishi zikr qilingan. Bunda faqat kofira ayollar emas, balki musulmonlarning ayollari ham nazarda tutiladi! Rasulullоh alayhissalom aytadilar: “Dajjol Madinani uch marta larzaga keltiradi. Shunda unga eng ko‘p chiqqanlar ayollar bo‘ladi! Mana shu kun — Madina fosiq va fosiqalardan xalos bo‘ladigan kundir.”(Sahih hadislar silsilasi, Alboniy sahih degan)

Yana boshqa rivoyatda: “O‘sha zamonda kishi onasi, qizi, ammasi dajjolga chiqib ketishidan qo‘rqib, ularni arqon bilan bog‘lab qo‘yadi.” (Imom Ahmad rivoyati)

Nega ayollar bunchalik dajjolga ergashadi? Birinchi sabab: o‘sha davrda butun dunyo fitna va azoblarga to‘lib ketadi. Dajjol esa filmlarda ko‘radigan “Supermen” yoki “O‘rgimchak odam” kabi insoniyatning “xaloskori” sifatida namoyon bo‘ladi. Bolaligidan bunday xomxayollarga aldanib ulg‘aygan ayol-qizlar uchun bu hodisa go‘yoki kutilgan orzudek tuyuladi.

Ikkinchi sabab: dajjol dunyoning barcha zebu-ziynatini o‘zi bilan olib keladi. Bugun zargarlik do‘koniga kirib og‘zi ochilib qoladigan, hashamatli savdo markazlariga talpinadigan, “odamlarga o‘xshab biz ham” degan orzuda yashaydigan ayollar ertaga dajjolning birinchi ergashuvchilaridan bo‘lishi hech gap emas.

Buning ustiga bugun xotin-qizlarini bunday isrofgarchilik va fitnadan to‘sib qololmayotgan erkaklar ertaga dajjol chiqqanda ularni boy berishi aniqdir.

Shuningdek, bugungi hayotimizda oddiy holga aylangan ko‘plab “kichik fitna”lar ham bor. Ayollar ulardan tiyila olmasligi yoki erkaklar ularni to‘xtata olmasligi, aslida “nega ayollar?” degan savolga javob bo‘ladi.

Agar bugungi xislatlar — noz, ziynatga o‘chlik, isrofgarchilik, dunyoga bog‘lanish — to‘g‘rilanmasa, Madinada yashayotgan bo‘lsangiz ham xotin-qizingiz dajjolning ortidan chiqib ketishi tayin!

48-eslatma

Rashk — fitrat va iymonni buzuvchi illat

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollari bilan hajga chiqqanlarida Sofiyya onamizning tuyasi qoqilib, shikastlandi va safarga yaroqsiz bo‘lib qoldi. Shunda Sofiyya onamiz bundan xafa bo‘lib, yig‘lay boshladilar. Rasulullоh alayhissalom kelib u kishini yupatib, ko‘z yoshlarini qo‘llari bilan artdilar. Ammo Sofiyya onamiz battar yig‘lashda davom etdilar.

Oxiri Rasulullоh alayhissalom g‘azablanib, onamizni tanbeh qildilar va hammani to‘xtashga buyurib, shu yerga chodir tikdirdilar. Sofiyya onamiz aytadilar: “Bu kun mening navbatim edi. Rasulullоh oldimga kirgach, menga nisbatan nafslarida g‘azabni sezib, u kishidan tortildim. So‘ng Oisha onamiz oldiga borib dedim: ‘Sen bilasan, men hech qachon navbatimni birovga sotmaganman. Lekin biror narsa qilib Rasulullohni mendan rozi qilishing evaziga kunimni senga beraman.’ Oisha rozilik bildi. Za’faronga bo‘yalgan rumolini olib, uni xushbo‘y suv bilan sepib, Rasulullоh oldilariga kirdi.” Rasulullоh ajablanib dedilar: “Senga nima bo‘ldi? Bu sening navbating emasku!” Oisha onamiz aytdilar: “Bu Allohning fazli, U xohlaganiga beradi!”

Rasulullоh shu kuni Oisha bilan tunadilar. Tongda esa Zaynab onamiz oldiga borib dedilar: “Tuyalaringdan birini Sofiyyaga ber.” Zaynab eng tuyasi ko‘p onamiz edilar. Ammo u kishi: “Yahudiyyangizga beraymi?!” — deb qo‘ydilar. Shunda Rasulullohning g‘azablari chiqib, Zaynab onamizni hajr qildilar. Makkaga kelib, haj qilib, Madinaga qaytguncha u kishi bilan gaplashmadilar, navbatini ham taqsim qilmadilar. (Bu hol Zul-hijja, Muharram va Safar oylarini o‘z ichiga oldi.) Hatto Zaynab umidini uzib, yotoqlarini yig‘ib qo‘ydilar. Zaynab onamiz aytadilar: “Rabi’ul-avval oyi kirgach, Rasulullohning soyalarini eshigimda ko‘rdim. Oldimga kirganlarida nima qilishni bilmay qoldim. Sofiyya onamizning bir cho‘risi bor edi, u meni Rasulullohdan berkitib yurardi. Rasulullоh kirganlarida bunga shukrona qilib, men dedim: ‘Yo Rasulullоh, shu cho‘rini sizga sovg‘a qildim.’ Shunda Rasulullоh yotoqlarimni qayta tushirib, men bilan bo‘ldilar va mendan ham rozi bo‘ldilar.” (Imom Ahmad rivoyati)

Zaynab onamiz aslida Rasulullоh ayollari ichida eng qo‘li ochiq, saxovatli ayol edilar. Lekin Sofiyya onamizga bo‘lgan rashklari, o‘zlarining bu go‘zal fazilatlari va hatto iymoniy kamolotlariga ham xira tushirdi.

Bir vaqtlar yahudiy bo‘lganini ayb qilib, Sofiyya onamizni “Yahudiyya” deb atashlari ortidan, Rasulullohning mehridan uzoqlashib qoldilar. Chunki bu oddiy rashk emas edi. Bu — odamlar Rasulullohga muhtoj turgan bir paytda, shaxsiy rashk sababini go‘yo “din uchun baroat” sifatida ko‘rsatish edi.

Aslida esa, Sofiyya onamiz yoshroq (17–20 oralig‘ida) bo‘lganlari uchun yig‘lab-sixtab Rasulullohga erkalanganlari Zaynab onamizning rashkini kuchaytirgan edi.

Alloh va Rasuli barcha onalarimizdan rozi bo‘ldi. Ammo bu rivoyat — keyingi ummat ayollariga ibrat bo‘lishi uchun keltiriladi.

49-eslatma

Farzandingiz haqqiga nima deb duo qilyapsiz?
Zamonamizda mashhurlik va obro‘ning eng oson yo‘li — xonanda yoki aktyorlik, yoki diniy “xonanda” bo‘lib ko‘rinish (masalan, saroy mullalik)ga aylanishdir.

Ota-onalar esa ko‘pincha ushbu o‘tkinchi obro‘ga mast bo‘lib, farzandi haqidagi duolari ham: “Shulardan kam bo‘lmasin” deyishdan nariga o‘tmaydi. Buning ustiga, o‘sha “mashhur”larga: “Bu yutuqlarga qanday erishdingiz?” deb so‘ralsa, javob: “Onam yoshligimdan duo qilardilar” — deb aytadi.

Vo ajab! Onalar farzandlarini “katta bo‘lsa do‘zaxiy bo‘lsin” deb duo qilishi mumkinmi? Ha — o‘zlari sezmasalar ham bu mumkin. Buning tasdig‘ini quyidagi hadisdan ko‘ramiz: Rasulullоh alayhissalom rivoyat qiladilar: (o‘tmishda) bir chaqaloq onasini emib turganda, bir kishi hashamatli ulovda, go‘zal ko‘rinishda o‘tib qoldi. Shunda ona unga qarab: “Allohim, mening o‘g‘limni ham shunday buyuk odam qilgin,” dedi.

Chaqaloq onaning ko‘kragini og‘zidan chiqarib tilga kirib, unga qarab dedi: “Allohim, meni unga o‘xshagan qilma.” Bola emishda davom etdi. Birozdan so‘ng bir cho‘ri kaltaklab olib o‘tishdi; ularga “sen zino qilding, o‘g‘irlik qilding” deyishardi, u esa: “Hasbiyallohu wa ni‘mal vakil” der edi. Shunda bu holni ko‘rgan ona: “Allohim, bolamni bunga o‘xshagan qilma!” dedi. Bola yana ko‘krakni og‘zidan chiqarib tilga kirib: “Allohim, meni shunga o‘xshagan qilgin,” dedi. Ona ajablanib bolasi bilan tortishib ketdi. Shunda bola dedi: “Siz havas qilib ‘Bolamni shunday qilgin’ dedingiz — u(z)ning zo‘r (fosiq) ekanini bilmagansiz; ammo bu cho‘ri esa tuhmat qilinib, zulm ko‘rmoqda, u esa pok bo‘lib sabr qilmoqda; shuning uchun meni ham shunga o‘xshagan (zulm ko‘sa-da pok inson) qilgin,” dedi. (Buxori va Muslim)

Televizor qarshisida o‘tirgan ota-onalar! Ahmoqlik qilib, bolangizni do‘zaxiy bo‘lishini so‘rab duo qilmang. Va “xoin” deb atab chiqilgan, ammo aslida haqq ahli bo‘lgan musulmonlarni qarg‘ab, padaringizga la‘n aytmang. Hali hammasi imtihon sinfida — uni unutmaylik.

50-eslatma

Oisha onamizni nima “Sarid”ga aylantirdi?
Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Oisha onamiz haqida aytadilar: “Oishaning boshqa ayollardan fazli, saridning boshqa taomlardan afzalligi kabidir.”

“Sarid” qadimda arablardagi eng mashhur va tansiq taomlardan edi. Sarid haqida Ibn Qayyim rahimahulloh aytadilar: “Sarid go‘sht va nondan tayyorlanadigan taomdir. Non ozuqalarning eng afzali bo‘lsa, go‘sht unga qo‘shib yeyiladigan eng afzal narsadir. Agar bu ikkisi jamlansa, undan oshadigan narsa yo‘q.” (Zodul-Maod)

Demak, Oisha onamiz “go‘sht va nonlik” sifatni o‘zlarida jamlab, boshqa ayollardan afzal bo‘ldilar. Ammo bu sifatlar qanday xulqqa dalolat qiladi? Ulamolar Oisha onamizning siyratlarini o‘rganib, u kishida ikki buyuk fazilatni “go‘sht va non” deb topishgan: ilm va saxovat.

Chunki bu ikki sifat — kishining ruhiga “go‘sht va nondek” zarur! Oisha onamizda boshqa biror ayol yeta olmaydigan darajada ilm bor edi. Imom Zuhriy aytadilar: “Agar qolgan onalarimiz ilmi bilan barcha ayollar ilmi jamlansa ham, Oishaning ilmlari afzal bo‘lar edi.” (Muvatto)

Ibn Hajar rahimahulloh aytadilar: “Shar’iy ilmlarning to‘rtdan bir qismi Oisha raziyallohu anhumodan naql qilingan deyilgan.”

Shunga qaramay, bir kishi Oisha onamizdan asrdan keyin namoz o‘qish taqiqlangani, ammo Rasulullоh alayhissalomning o‘zlari o‘qiganliklari haqida so‘raganda, sira tortinmay, haqni egasiga qaytarib: “Bu haqida Ummu Salamada ilm bor,” — deb, so‘rovchini kundoshlariga yuborgan edilar. (Buxoriy-Muslim)

Ammo u kishini “Sarid” qilgan ikkinchi sifat — saxiylik haqida gapirib tugatish mushkul! Urva ibn Zubayr aytadi: “Oisha raziyallohu anhumo bir kunda yetmish mingni tarqatib yuborganlarini ko‘rdim! O‘zlari esa yirtiq kiyimini tikib kiyib o‘tirardilar.” Ato aytadi: “Muoviya raziyallohu anhumo Oisha onamizga yuz ming tilla tangaga teng mablag‘ yuborganda, hammasini Rasulullоh alayhissalomning ayollari orasida taqsimlab yubordilar.” (Musannaf Ibn Abi Shayba)

Ummu Durro aytadi: “Ibn Zubayr Oishaga ikki qopda 180 ming yuborganda, u kishi uni bir tovoq bilan taqsimlab chiqardilar. Shom bo‘lgach, menga ‘Iftorni keltir,’ dedilar. Men esa quruq non va yog‘ bilan iftorlik keltirdim.

Shunda: ‘Shu pullardan ozroq qoldirib go‘sht sotib olsangiz bo‘lardi-ku,’ dedim. Oisha aytdilar: ‘Menga eslatganingda shunday qilar edim, endi meni koyima.’” (Sifatus-Safva, Ibn Javziy)

Ularning bu darajada qo‘llari ochiqligini ko‘rgan jiyanlari Abdulloh ibn Zubayr, u kishiga achinib: “Allohga qasam, agar bu ishlaridan to‘xtamasalar, Oishani sadaqadan tiyib qo‘yamiz,” — deb yuborgan edi.

Bu saxovat esa Oisha onamizga Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan yuqqan edi. U zot hayotlik chog‘larida shunday voqeani aytadilar: “Bir ayol ikki qizi bilan tilamchilik qilib kelganda, uyimda bir dona hurmodan boshqa narsa topmadim. Shuni ayolga berdim, u esa uni ikki qiziga bo‘lib berdi.”

Ayolni “Sarid” qilgan narsa — insonlarning dunyo va oxiratini obod qilish uchun “ilm va sadaqa”ni tarqatishdir.

51-eslatma

Salaflarning bola tarbiya uslublaridan

Mashhur faqih Ahmad ibnu Ahmad Zarruq (846–899 hijriy) rahimahulloh aytadilar: “Mening buvim Ummul-Baniyn, besh yoshligimda namozga o‘rgatib, menga tavhid, iymon va tavakkulni ajoyib uslubda ta’lim berar edilar.

Menga taom tayyorlab qo‘yar, lekin maktabdan kelsam: ‘Menda hech qanday yegulik yo‘q. Lekin rizq Mawlo taoloning huzurida. O‘tirgin, qo‘limizni ko‘tarib, bir muddat duo qilaylik’ — der edilar. So‘ngra: ‘Turib uyni izlagin, chunki rizq maxfiy berkitilgan bo‘ladi,’ — der edilar.

Qachonki (buvim tayyorlab, yashirib qo‘ygan) taomni topsam, unga va uni bergan Allohga qattiq shukr qilardim. Buvim bo‘lsa: ‘Keling, endi yeyishdan avval Allohga shukr aytaylik, toki bizga yanada ziyoda qilsin,’ — der edilar.

Shundan so‘ng yeyar edik. Meni namozga buyurar edilar. Men betahorat namoz o‘qisam, xolam qarshi chiqardi. Shunda buvim: ‘Qo‘y o‘qiyversin, hali tahorat bilan o‘qiydigan yoshi ham keladi,’ — der edilar.

Balog‘at yoshiga yaqinlashganimda esa, ertalab bomdod namoziga uyg‘onishim uchun, har kuni yostig‘imga bir dirham qo‘yib: ‘Bomdodni o‘qi, keyin dirhamni olgin,’ — der edilar.

Yana aytar edilar: ‘Bu dirham uning namoziga yordamchi, buzg‘unchilikdan qaytaruvchi va istaklarida odamlarga ko‘z tikishdan himoya qiluvchidir.’

Demak, bolaning barcha ehtiyojini qondirish — tabiiy yoki majburiy ko‘ringan holda berilishi shart emas. Balki har bir ne’matni Allohdan so‘rab olinishi, so‘ragach harakat qilinishi, qo‘lga kiritilgach esa “ishim bitdi” deb ketmay, balki shukr qilinishi kerak. Shu orqali unga tavhid, iymon va Allohga tavakkulni singdirish mumkin.

Shuningdek, bolani ibodatga qiziqtirish uchun sovg‘alar tashkil etish, bu sovg‘alarni esa foydali va qiymatli narsalardan qilish orqali unga iffat va qanoat ta’lim beriladi. Zero, Alloh taolo aytadi: “Yaxshilik va taqvoda yordamchi bo‘linglar.” (Moida: 2)

Bolalik esa — bu yordam va ta’limga eng muhtoj bo‘lgan davrdir.

52-eslatma

Gunohkorlik tamg‘asidan qutulish uchun boshqalarni ham gunohkor qilmang

Yusuf alayhissalomni vazirning ayoli yo‘ldan urmoqchi bo‘lgach, bu voqea shahardagi ayollar orasida tarqalib, ular: “Azizning xotini ham shunday qiladimi! Yana o‘zining bir quli bilan!” — deb, uni ochiq zalolatda ekan deyishdi.

Shunda Alloh taolo aytadi: “Qachonki (vazirning xotini) ayollarning bu makrini eshitgach.” (Yusuf: 31)

Nega ayollarning so‘zlarini Alloh taolo “makr” deb nomladi? Axir, ularning so‘zlari bir qarashda fahsh va munkardan qaytarishga o‘xshab turardi-ku? Chunki bu ayollarning asl maqsadi fahshdan qaytarish emas, balki vazirning xotiniga munofasa (ya’ni “men sendan afzalman” deyish) va qalblarida tugib yurgan ko‘rolmaslikni fursat topilganda yuzaga chiqarish edi.

Buning dalili: azizning xotini ularni mehmon qilgach, Yusuf alayhissalomni ko‘rishdi va qo‘llarini kesib yuborib: “Bu bashar zotidan emas, balki karamli farishtadan boshqa narsa emas,” — dedilar.

Ya’ni, kechagina azizning xotinini “Bir qulga boshi aylanibdi, ochiq zalolatdagi xotin ekan,” — deb yurgan ayollar bugun o‘zlari ham Yusuf alayhissalomga oshiq bo‘lib qoldilar.

Demak, birovga shariatni niqob qilib, aslida o‘z g‘arazingizni qondirish, undan ustunligingizni isbotlash — kishining sharmanda bo‘lishiga olib keladi, xolos. Qissaning davomida vazirning xotinining so‘zlariga e’tibor bering: “Mana sizlar meni malomat qilganlaringiz shudir! Haqiqatda men uni nafsim bilan istadim, u bo‘lsa o‘zini saqladi. Agar men buyurgan ishni qilmasa, albatta qamalib xor bo‘ladi,” — dedi. (Yusuf: 32)

E’tibor bering! Ayolning bu darajada surbetlik qilib, uyalmasdan “Meni xohlamasa, qamataman,” — deyishga jur’ati qayerdan paydo bo‘ldi? Axir ayollarning g‘iybatini ko‘tara olmay, ularni mehmonga chaqirgan ham shu ayol edi-ku!

Bu jur’atning siri shunda ediki — endi boshqa ayollar ham u bilan gunohda barobar bo‘lib, hammalari Yusufni istab qolgan edi. Shunday ekan, u o‘zini go‘yoki oqlab olgan edi. Endi bu ish uyaladigan ish emas, balki hamma ayollar istagan oddiy hirsga o‘xshab qoldi.

Bu darajaga tushishiga esa shahardagi ayollarning johilona “dedi-dedi”lari sabab bo‘ldi. Shu bois Alloh ularning bu so‘zlarini “makr” deb nomladi.

Hozir ham ba’zi ayollarda uchraydigan bu xislati yomon odatlardan boshqa ayollar ogoh bo‘lishlari lozim. Chunki ular o‘z gunohkorligini oqlash uchun boshqalarni ham shu chuqurga yetaklab, so‘ngra behijolat bo‘lishni istaydilar. Alloh taolo aytadi: “Ular istaydilarki, ular kofir bo‘lganidek sizlar ham kofir bo‘lib, ularga barobar bo‘lsangizlar.” (Niso: 89)

53-eslatma

Kundoshni kuydirish - sehr hukmida

Imom Buxoriy o‘zlarining Sahih kitoblarida yozadilar: Bob: “O‘zida yo‘q narsasi bilan o‘zini to‘yingan qilib ko‘rsatadiganlar, va kundoshlar faxrlanib (bir-birini kuydirishi) qaytarilgani haqida.” Bir ayol Rasulullоh alayhissalom oldilariga kelib dedi: “Ya Rasulullоh! Mening ‘dzorro’ (kundoshim) bor. Agar erim menga bermagan narsalarni berdi deb, o‘zimni unga to‘liq, bekamu ko‘st qilib ko‘rsatsam, menga gunoh bo‘ladimi?” Shunda Rasulullоh alayhissalom aytdilar: “O‘ziga berilmagan narsalarni bor qilib ko‘rsatuvchi kishi, go‘yo ikki yolg‘on libos kiygan kishidekdir.” (Buxoriy, 4921)

Qadimda arablar kundoshni “dzorro”, ya’ni “zarar beruvchi” deb atashar edi. Chunki kundoshlik ayollar ko‘pincha bir-biriga zarar berish bilan mashg‘ul bo‘lishardi.

Shu bois Qur’on va sunnatda bu nom o‘zgartirilib, kundosh ayollar “uxt” (opa yoki singil) deb zikr qilindi. Ammo bizning urfda hamon ayollarda kundosh “dushman” degan tasavvur qolgani sababli, go‘yo uni kuydirish yoki unga zarar berish gunoh emasdek fikrlash odat tusiga kirib qolgan.

Yuqoridagi hadisda, kundoshini yolg‘on gaplar bilan kuydirish payida bo‘lgan ayolning ishi “ikki yolg‘on libos kiyish”ga o‘xshatildi.

Bu degani:

- Avvalo, u o‘ziga yolg‘on guvohlik berdi;
- So‘ng kundoshiga ham yolg‘on guvohlik berdi.

Natijada uning jazosi ikki barobar og‘irlashdi.

Ibn Hajar rahimahulloh aytadilar: “Bu bilan Rasulullоh alayhissalom ayollarni bunday ishlardan nafratlantirdilar. Chunki bunday gaplar kundoshi bilan erining orasida fitna-fasod chiqarib, nafrat soladi. Natijada uning bu ishi er-xotin orasini buzadigan, sovutuvchi sehrga teng bo‘lib qoladi.” (Fathul-Boriy)

Demak, bu ishlarni qiladigan ayol — yolg‘on guvohlik beruvchi hisoblanadi. Uning guvohligi qabul qilinmaydi. Va u, sehr bilan er-xotin orasini buzadigan folbinlarga o‘xshab qoladi!

54-eslatma

Farzandingizni qarg‘amang

Ko‘p ayollarda uchraydigan illatlardan biri — g‘azabi chiqqan paytda farzandlarini (hatto til uchida bo‘lsa ham) “Bola bo‘lmay o‘l!” kabi so‘zlar bilan qarg‘ashdir.

Mashhur lug‘at olimi Zamaxshariy oyog‘i kesilgan edi. U kishidan buning sababini so‘rashganda aytdilar: “Yoshligimda bir chumchuqni ushlab, oyog‘iga ip boyladim. Qush uchganda ipni bir tortsam, uning oyog‘i uzilib ketdi. Shunda onam qushga achinib: ‘Qanday qushning oyog‘ini uzgan bo‘lsang, Alloh seni ham oyog‘ingni uzsin!’ — deb yubordilar.

Kunlardan birida ilm safarida Buxoroga yo‘lga chiqdim. Yo‘lda ulovdan yiqilib oyog‘im sindi. Tabiblar davolashga ojiz bo‘lib, uni kesib tashlashdi.” (Azharur-Riyoz)

Agar Zamaxshariyning onasi o‘g‘lining oyoqsiz qolishini oldindan ko‘rganida, albatta bunday duo qilmagan bo‘lardi. Lekin u ham bugungi onalar singari og‘zidan chiqadigan so‘zlariga beparvo bo‘lib, sezmagan holda o‘g‘lini qarg‘ab qo‘ydi.

Ayollar jahannam ahli ko‘pligi zikr qilinganda, Rasulullоh alayhissalom buning sabablaridan biri sifatida aytadilar: “Sizlar qarg‘ishni ko‘paytirasizlar.” (Buxoriy rivoyati)
“Men qarg‘ish maqsadida aytmadim” degan bahona bilan farzandingizning baxti qaro bo‘lishiga sababchi bo‘lmang! Chunki goho sizning niyatingiz e’tiborga olinmaydi.

Rasulullоh alayhissalom ogohlantiradilar: “O‘z nafslaringizga qarg‘ish qilmanglar, farzandlaringizga qarg‘ish qilmanglar, molingizga qarg‘ish qilmanglar! Balki qarg‘ishingiz Alloh tilaklarni mustajob qiladigan vaqtlarga to‘g‘ri kelib qolmasin, keyin u sizlarga ham mustajob bo‘lib qoladi.” (Imom Muslim)

Obid Jurayjning onasi o‘g‘liga qilgan qarg‘ishi mustajob bo‘lgani ham shunga ishora qiladi. Bir kuni Umar raziyallohu anhu oyog‘i shol bo‘lgan kishidan:
— “Oyog‘inga nima bo‘lgan?” — deb so‘radilar.
U odam:
— “Otam johiliyatda meni qarg‘agan edi,” — deb javob berdi.
Shunda Umar raziyallohu anhu aytdilar: “Agar johiliyat davridagi ota-onalarning qarg‘ishi shunday bo‘lsa, islomdagi ota-onalarning qarg‘ishi qanday bo‘lar ekan?!”

Farzandga qarg‘ish tilash — kichik gap emas, balki hayotini butunlay o‘zgartirib yuboradigan xavfli duodir. Shuning uchun g‘azab paytida ham tilni tiyish, Allohdan faqat yaxshilik so‘rash zarur.

55-eslatma

Erkak va ayol orasiga sovuqlik soluvchi omillar

1. Qaysarlik

Qanday erkakdan so‘ramang, ayolida bu xislati bo‘lishini yomon ko‘radi. Ayol o‘zidagi qaysarlikni davolashi uchun eriga shunchaki “erkak” nazari bilan emas, balki Alloh uni ayolga boshliq qilgani e’tiborida qarashi lozim. Chunki erga qilingan qaysarlik — aslida Allohga qaysarlik ekanini unutmaslik kerak.

Shayton ham Odamga sajda qilishdan bosh tortgan paytda “Men Allohga kibr qilmayapman” demagan, balki o‘zicha odamni mensimagan edi. Natijada u Allohga osiy bo‘lib qoldi. Ayol ham “Men Allohga kibr qilmayapman” desa-da, eriga itoatsizlik qilsa, o‘zi bilmagan holda Allohga isyon qilgan bo‘lishi mumkin.

Demak, qaysarlikni davolashning yo‘li — erga itoatni mas’uliyat emas, ibodat deb bilish; qarshilikni esa oddiy qarshilik emas, Allohga osiylik deb ko‘rishdir.

2. Erga ovoz ko‘tarish

Alloh taolo aytadi: “Sizga hujralarning ortidan turib qichqiradiganlar — ularning aksari aql qilmaydilar.” (Hujurot: 4)

Demak, baqiroqlik — aqlsizlik alomati bo‘lib, kishining obro‘sini to‘kadi. Hatto Abu Bakr va Umar raziyallohu anhumo Rasulullоh alayhissalom huzurlarida ovozlarini ko‘tarib yuborganlarida, Alloh taolo ularni ogohlantirib, bu amallar amallarini habata qilib yuborish xavfiga olib kelishini eslatdi. (Hujurot surasi avvalida)

Albatta, er payg‘ambar emas. Ammo oyatdan ibrat shuki — ovoz ko‘tarish muhabbatni so‘ndiradi. Ayol ham eriga ovozini baland qilishi bilan, o‘zi sezmagan holda uning qalbidagi muhabbatidan ajralishi mumkin.

3. Tez qizish va g‘azablanish

Jizzaki va asabiylik — hech kimga yoqmaydigan xulqlardandir. Gohida ayol o‘z farzandiga sabri yetmay qoladi. Rasulullоh alayhissalom dedilar: “G‘azab — shaytondan.”

Shaytonga esa er-xotin orasini buzishdan ko‘ra yoqimli ish yo‘q. Alloh taolo sehrni zikr qilganda ham eng avvalo “er-xotin orasini buzadigan sehr”ni tilga oldi: “Ular sehr orqali er bilan xotinning orasini buzadigan narsalarni o‘rganar edilar.” (Baqara: 102)

G‘azabni yutish ibodat va sadaqa ekanini eslash bilan bo‘ladi.

Alloh taolo aytadi: “Ular (mo‘minlar) kengchilikda ham, qiyinchilikda ham sadaqa qiluvchilar, g‘azablarini yutuvchilar va odamlarni kechiruvchilardir.” (Oli Imron: 134)

Agar “odamlarni kechirish” sadaqa ajriga tenglashtirilgan bo‘lsa, ayolning eridan g‘azabini yutishi — albatta eng buyuk sadaqalardan bo‘ladi. Chunki birovga molni sadaqa qilish — uning moddiy tarafidan yordami bo‘lsa, asabini buzmaslik — uning aqliy va ruhiy salomatligiga yordamdir.

56-eslatma

“Hali bolada” demang

Bugungi avlod 20 yoshga kirsada, baribir “bola tabiat” bo‘lib qolishining sabablaridan biri — unga “hali bolada” deb orqaga tortishdir. Shariyatda esa bola tarbiyasida doim buning aksi qo‘llangan. Bunga bir qancha ibratli misollarni keltirishimiz mumkin.

Masalan, hali yosh bo‘lsa ham uni kunya bilan (ya’ni Abu Fulon yoki Ummu Fulon) deb chaqirish odati mavjud bo‘lgan.

Anas raziyallohu anhu aytadilar: “Men sutdan endi ajragan bir ukam bor edi. Uning qushchasi ham bo‘lardi. Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam biznikiga tashrif buyurganlarida, ukamga qarab: ‘Ey Abu Umayr, qushchaga nima bo‘ldi?’ — deb so‘rardilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

Demak, endigina sutdan chiqqan bolaga ham kunya qo‘yib, qo‘l ostidagi qushchasining ahvolini so‘rab, go‘yo uni katta odamdek e’tiborga olganlar. Imom Buxoriy rivoyatida yana keladi: “Rasulullоh sallallohu alayhi vasallamga kiyimlar keltirildi. Ularning orasida bir qora ko‘ylakcha ham bor edi. Shunda Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam dedilar: ‘Bu ko‘ylakchani kimga kiygizamiz, deb o‘ylaysizlar?’

Odamlar sukut qildilar. So‘ng: ‘Menga Ummu Xolidni olib kelinglar,’ — dedilar. Ummu Xolidni (kichkina qizchani) ko‘tarib olib kelishdi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam o‘sha ko‘ylakchani olib unga kiygizdilar.”

Bu voqea ham qizchaning hali qo‘lda ko‘tariladigan yoshda bo‘lganiga ishora qiladi. Shunga qaramay, uni “Ummu Xolid” deb kunyalashgan. Chunki kunya bolaga kattalik tuyg‘usini berib, uni mas’uliyatga tayyorlaydi.

Abdulloh ibn Muborak rahimahulloh Kitobul-Jihodda rivoyat qiladilar: “Yarmuk jangida Abdulloh ibn Zubayr otasi Zubayr ibn Avvom bilan birga janggohga chiqdi. Mushriklar mag‘lub bo‘la boshlagach, u ham otasining ortidan tushib, yo‘ldagi majruh kofirlarni o‘ldirib borar edi.”

Yarmuk jangi hijratning 15-yillarida bo‘ldi. Abdulloh ibn Zubayr esa hijratning avvalida, 1- yoki 2-yillarda tug‘ilgan edilar. Demak, u kishi mayib-majruh kofirlarni o‘ldirib, janglarda otasiga yordam berib yurganida atigi 14–15 yoshda edi. Onasi Asmo binti Abu Bakr aytadilar: “Abdulloh 7 yoshga to‘lganda, otasi Zubayr uni Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam huzurlariga bay’at berish uchun jo‘natdi.

Rasulullоh uni kelayotganini ko‘rib, tabassum qildilar va bay’atini qabul qildilar.”

Aslida 7 yoshli boladan bay’at olish shart emasdi. Lekin Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam va sahobalar bolalarni kattalardek ko‘rib, ularga mas’uliyat berib tarbiyalashni istashar edilar. Ana shunday tarbiya natijasida keyinchalik Hajjojlarga qarshi chiqqan, sabrli va mard Ibn Zubayr yetishib chiqqan edi.

57-eslatma

Nikohdan ko‘zlagan g‘oyangiz nima?

Yahyo An-Nisaburiy aytadilar: “Bir kuni Sufyon ibn Uyayna majlisida edik. Shunda bir odam kelib dedi: ‘Ey Sufyon! Sizga ayolim falonchadan shikoyat qilib keldim, chunki men uning nazarida eng past va haqir narsaman!’ (ya’ni hurmat qilmaydi).

Sufyon bir muddat boshlarini egib sukut qildilar. So‘ngra boshlarini ko‘tarib: ‘Ehtimol, sen xotining orqali izzat topish uchun unga uylangandirsan?’ — dedilar. Haligi kishi: ‘Ha,’ dedi. Sufyon aytdilar: ‘Kim xotin orqali izzat izlab uylansa — horlikka mubtalo bo‘ladi. Kim mol-dunyo istagida uylansa — faqirlikka mubtalo bo‘ladi. Kim dini uchun uylansa — Alloh unga azizlikni ham, molni ham jamlab beradi.’ So‘ngra yana aytdilar: ‘Biz to‘rt aka-uka edik: Muhammad, Imron, Ibrohim va men. Muhammad uylanmoqchi bo‘lganda ayolning obro‘-e’tiboriga qiziqib, obro‘li ayolga uylandi. Natijada horlikka mubtalo bo‘ldi.

Imron esa puldor xotinga uchdi va faqirlikka mubtalo bo‘ldi. Men esa ularning holatini Shayx Ma’marga aytib berdim. U menga ikki hadisni eslatdi:

1. “Ayolga to‘rt narsasi uchun uylaniladi: dini, obro‘si, moli va chiroyi. Sen dindorini qo‘lga kiritgin, aks holda qo‘ling tuproqqa belanadi.” (Buxoriy va Muslim) (ya’ni, hor bo‘lib yer bilan yakson bo‘lasan).
2. “Ayollarning yaxshisi — harajati (xarajati, mahr va talablari) yengilidir.” (Imom Ahmad).

Shundan so‘ng men dindor va mahrida yengil ayolni tanladim. Natijada Alloh menga dindorligiga qo‘shimcha azizlik va molni ham jamlab berdi.’” (Tahzibul-Kamol)

Sufyon rahimahulloh ushbu so‘zlari bilan uylanish yoki kelin olishdagi asl g‘oyani aniqlashga ishora qilmoqdalar. Kimdir: “Falonchining qiziga uylanibdi,” yoki “falonchining kelinini olibdi” deb obro‘ orttirishga qiziqsa, bilsinki, aynan shu obro‘ orqali unga xorlik yetadi. Chunki nikoh obro‘-e’tibor uchun chiqarilmagan. Noo‘rin ishlatilgan hislat oxir-oqibat baloga aylanadi.

Shuningdek, nikoh mol-dunyo topish uchun ham emas. Kim bu niyatda qilsa, aynan shu xotindan unga faqirlik balosi keladi. Ammo kim nikohni shar’iy maqsadda — dinini to‘liq qilish uchun qilsa, Alloh unga qo‘shimcha sifatida boshqa ne’matlarni ham beradi.

Buni ayol tarafdan ham tahlil qilish mumkin. Ya’ni, bir ayol turmushga chiqishda erida dindan boshqa hislatni qidirmoqchi bo‘lsa, aynan o‘sha istagining aksi bilan balolanadi.

— “Falonchining xotini bo‘lishim sharaf,” degan ayol, o‘sha falonchining qo‘lida hor bo‘ladi.

— “Falon boy, shuning xotini bo‘laman,” degan ayol esa, aynan shuning qo‘lida gado bo‘ladi.

Hatto bugungi kunda nikohni oddiy qog‘oz-varoqlarga (hujjatlar, rasmiylashtirish) erishish uchun qilayotganlar gohida hujjatsiz qolish bilan jazolanadilar. Chunki shar’iy maqsad uchun joriy qilingan nikohni arzimas g‘oyaga ishlatganlarga Rasulullоh sallallohu alayhi vasallamning ogohlantirishlari yetadi: “Tuproqqa belangur!” — ya’ni xorlik va barakatsizlikka mubtalo bo‘ladi.

58-eslatma

Bulbul va’dasi

Alloh taolo Qur’onda Sulaymon alayhissalomning so‘zlarini keltiradi: “(Sulaymon) aytdi: Ey odamlar! Bizga qushlar tili ta’lim berildi.” (Naml: 16)

Bu oyatning tafsirida Ibnul-A’robiy aytadilar: “Sulaymon alayhissalomga berilgan mo‘jizalardan biri — qushlar tilini tushunishlari edi.”

Ibn Avn aytadilar: Bir kuni Sulaymon alayhissalom majlislarida o‘tirganlarida, bir bulbulni ko‘rib qoldilar. Haligi bulbul boshqa bir urg‘ochi bulbulni o‘ziga qaratmoqchi bo‘lar, biroq u unga mutlaqo qiyo boqmas edi.

Shunda bulbul ma’shuqasiga qarab shunday degan ekan: “Sen mendan yuz o‘girasanmi? Agar menga Sulaymonning taxtini bir qanotim bilan ko‘tarib olib kelishni buyursang ham, albatta amringni bajaraman!”

Buni eshitib turgan Sulaymon alayhissalom kulib yubordilar va bulbulni chaqirib dedilar: “Sening so‘zlaringni eshitdim. Nahotki bu ishlar sening qo‘lingdan kelsa?”

Shunda bulbul aytdi: “Ey Allohning payg‘ambari! Agar oshiqning sevgilisi undan yuz o‘girsa, oshiq o‘z ma’shuqasi uchun toqatidan tashqari narsalarni ham aytadi. Ya’ni qo‘lidan kelmasa ham, faqat uni yo‘qotmaslik uchun katta va’da beradi.”

Ya’ni, ma’shuqasini saqlab qolish uchun inson ba’zida qo‘lidan kelmaydigan narsalarga ham va’da qiladi. Bu aldoqchilik yoki xiyonat emas. Balki: “Qo‘limdan kelmaydi deb aytsam, yaxshi ko‘rganimdan ajralib qolaman,” degan tuyg‘udan kelib chiqadi.

Ibnul-A’robiy bu qissaga izoh berib aytadilar: “Bu uslub bizning shariatimizda ham bor!”

Ya’ni, shariatda erkak kishi xotinini rozi qilish uchun, yoki undan ayrilib qolmaslik uchun ba’zida yolg‘on gapirishiga, yoki qilolmaydigan narsani va’da qilib ko‘nglini ovlashiga ijozat berilgan.

Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam aytdilar: “Uch o‘rindan boshqa joyda yolg‘on gapirish halol emas. Shulardan biri: kishi xotinini rozi qilish uchun unga yolg‘on gapirishi.” (Termiziy rivoyati, sahih hadis)

Demak, erkak xotinining haqqini yeyish yoki uni aldayotgani uchun emas, balki undan ayrilib qolmaslik uchun ba’zida va’da qilib, uni bajara olmasligi xiyonat yoki kazzoblik sanalmaydi. Aksincha, ayol bunday holatni mehr bilan “Bulbul va’dasi” deb qabul qilishi lozim.

59-eslatma

Qizlar ota-onani o‘g‘illardan ko‘proq sobit qiladilar

Muhaddis Osim ibn Ali rahimahullohning ikki qizi u zotga maktub yozib shunday deyishgan ekan: “Ey ota! Bizga xabar keldiki, hokimlar Ahmad ibn Hanbalni olib ketib, Qur’onni maxluq deyishga majbur qilib savalabdi. Siz ham Allohdan qo‘rqing! Ularga javob bermang. Allohga qasamki, biz uchun sizning tobutingiz kelishi — ‘ularning istagiga javob beribdi’ degan so‘z kelishidan suyukliroqdir!”

Bu sobitlikka yana bir misolni Fotima raziyallohu anhoda ko‘rishimiz mumkin. Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam Ka’bada namoz o‘qib turganlarida mushriklar u zotning ustlariga axlat to‘kib yuborishdi. O‘sha paytda ularga qarshi chiqishga hech kimning jur’ati yetmadi. Shunda qizlari Fotima raziyallohu anho kelib, otalarining ustidan axlatni olib tashlab, mushriklarni so‘kib, u zotni himoya qildilar. (Buxoriy va Muslim rivoyati)

Ulamolar hayotlaridan ham bunday misollar bor. Masalan, muhaddis Qurro ibn Habib rahimahullohning qizlari.

Abu Zur’a aytadilar: “Qurro ibn Habib umrlarining oxirlarida xotiralari susayib, rivoyatlarni chalkashtirib yuborar edilar. Shuning uchun faqat kitoblaridan hadis aytar edilar. O‘g‘illari yonlarida bo‘lmasa, hadis aytmasdilar. Chunki adashsalar, o‘g‘illari eslatib turar edi.

Bir kuni u zotning oldiga kirdik. O‘g‘illari uyda yo‘q ekan. Shunda Qurro ibn Habibning qizi eshik ortidan turib dedi: ‘Ey otam! Bu kelgan kishilar hadis sohiblari. Men sizning chalkashib qolishingizdan yoki ular sizga bo‘lmagan hadislarni kiritib ketishlaridan qo‘rqaman. Shuning uchun akam kelmagunicha ularni huzuringizga qabul qilmang.’

Otasi esa: ‘Ey qizim, men ham hadis yodlagan kishiman. Ularga bunday qilishlariga yo‘l qo‘ymayman,’ — dedilar.

Ammo shunga qaramay, Qurro ibn Habibning qizi otasining hadislariga qayg‘urib, akasi kelgunicha otasini bizdan asrab turdi. Qachonki Ali ibn Qurro keldi, biz Qurro huzurlariga kira oldik. Ungacha qizi otasini bizdan ehtiyot qilib, qo‘riqlab turdi.”

60-eslatma

Baxtli hayot ma’nosi

Dunyoda baxtli yashashning siri — kishi o‘zining hayotini birovlarning hayoti bilan taqqoslamasligidadir. Alloh taolo aytadi: “Albatta abrorlar (yaxshilik qiluvchilar) ne’matdadirlar. Va albatta fojirlar jahannamdadirlar.” (Infitor, 13–14)

Roziy rahimahulloh aytadilar: “Abrorlarning ne’mati — qanoatli hayot. Fojirlarning jahimi esa — tamagir hayotdir.”

Ya’ni, kimki hayotda Alloh berganiga qanoat qilsa, uning hayoti ne’matga burkanadi. Qanoatsiz kishi esa, hatto hamma narsa muhayyo bo‘lsa ham, hayoti do‘zaxdek bo‘ladi. Uning ko‘zida hamma baxtli, faqat o‘zi baxtsizdek tuyuladi.

Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam aytadilar: “Islomga kirgan, rizqi o‘ziga yetarlicha berilgan va Alloh berganiga qanoatli qilingan kishi, albatta, yutuqqa erishibdi.” (Muslim rivoyati)

Ayol kishi ham eridan ko‘ngli to‘lmay: “Falonchining eri bunday ekan,” desa, demak er-xotinlik rishtalarida darz ketgan bo‘ladi.

Bunday so‘z avvalo qanoat yo‘qligidan dalolat qilib, Allohni norozi qiladi. Keyin esa erga bepisandlik bo‘lib, uning ko‘nglini og‘ritadi.
Unutma! Bu dunyoni “bir kam dunyo” deyishadi. Baxtli ko‘ringanlarning ham ichki dunyosida yetarlicha dardlari bo‘lishi mumkin. Balki ular ham boshqa bir jihatdan sening hayotingga havas qilishar.

Odamlar odatda hayotidagi kamchiliklarni yashirib, erishgan ozgina narsasini bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Buni xalq orasida “Ko‘rmaganni ko‘rgani qursin” deyishadi.

— Kim uyini maqtasa, demak u uyga muhtojlikdan keyin zo‘rg‘a yetgan.
— Kim eri bergan sovg‘alarni maqtasa, demak uzoq be’e’tiborlikdan keyin e’tibor ko‘ribdi.

Dunyodagi qonun shuki: kim nimani maqtasa, demak u o‘sha narsaga muhtojdir. Chunki biror narsadan behojat odam uni maqtanishni or deb biladi.

Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam aytadilar: “Alloh senga qilgan taqsimiga rozi bo‘l, odamlarning eng boyi (behojatlisi) bo‘lasan.” (Termiziy rivoyati)

Alloh taolo aytadi: “Kim erkak bo‘lsin, ayol bo‘lsin, mo‘min holida solih amal qilsa, bas Biz uni (dunyoda) pok hayotda yashatamiz. Va ularga qilgan amallarining ajrini oxiratda eng go‘zal tarzda mukofotlaymiz.” (Nahl, 97)

Aliy raziyallohu anhu oyatda va’da qilingan “pok hayot” haqida dedilar: “U — qanoatli hayotdir.” (Ibn Kasir rivoyati)

Mundarija

1-eslatma: Nomahramga yo'liqqanda nima qilish kerak?.....3
2-eslatma: Ayolning qadri.....4
3-eslatma: Ayol nolasi 1.....5
4-eslatma: Ayol nolasi 2.....7
5-eslatma: O'tmish va bugun.....10
6-eslatma: Allohning va'dasiga ishonch.....12
7-eslatma: Farzand - onaning mevasi.....14
8-eslatma: Ayolni e'tiborsiz qoldirmang.....15
9-eslatma: Qilsang, Alloh uchun qilibsan.....16
10-eslatma: Dunyoda soliha bo'lib o'tgan ayollar — albatta jannatdadirlar.....17
11-eslatma: Ko'ngli to'lmas er.....18
12-eslatma: Boshyalang qalbi tozalar.....20
13-eslatma: Xolis tarbiya.....21
14-eslatma: Qaysi ayolning turmush o'rtog'i uning haqqiga duo qilmoqda?.....22
15-eslatma: Sadaqa qutisi.....23
16-eslatma: Oiladagi tinchlik siri.....25
17-eslatma: Bolaning tarbiyasiga ertaroq bel bog'lash.....26
18-eslatma: Hovlidan oldin qo'shnini tanlang.....28
19-eslatma: Otasining erkatoyi.....29
20-eslatma: Siz qaysi vodiydasizu, eringiz qaysi vodiyda.....30
21-eslatma: Ayolning erga itoati — erning amirga itoati muqobilida.....32

22-eslatma: Hurilarning qarg‘ishiga qoladigan ayollar.....34
23-eslatma: Ayollarning yo‘lda yurish odobi.....36
24-eslatma: Dayus namozxonlar va ularning la’natlangan xotinlari.....37
25-eslatma: Soliha ayol tanlashning foydalaridan.....39
26-eslatma: Yomon ko‘rsa-da insofni unutmaslik va rashkni yutish fazli.....40
27-eslatma: Erga itoat fazli.....42
28-eslatma: Hech kim birovning yukini ko‘tarmaydi.....44
29-eslatma: Takalluf - ummatlarni halok qiladi.....46
30-eslatma: Onalar shijoati farzand yo‘lini belgilashi.....48
31-eslatma: Uyda buxgalterlik qiladigan ayol — xonadondan barakani uchiradi.....50
32-eslatma: Johilona to'y-tantanalar xatari.....52
33-eslatma: Bolalarni yolg‘onga o‘rgatmang.....54
34-eslatma: Qiz bolani tarbiyalash fazli.....56
35-eslatma: Tortishuv ayollik sifati emas.....58
36-eslatma: Birovlarning obro‘sidan tilni tiya olmaslik nimadan?.....60
37-eslatma: Muhabbatni ziyoda qilmoqchi bo‘lsang, kam-kam ziyorat qilgin.....62
38-eslatma: Ayol uyining fitnalari bilan kurashadi, ummat fitnasi bilan emas.....64
39-eslatma: Qizim baxtli yashasin desang, kuyovga yukni ko‘paytirma.....67

40-eslatma: Dunyo matohi safidan chiqib,
boqiy solihalar safiga qo‘shiling.....69
41-eslatma: Ayollarning Ramazondagi ajrlari.....72
42-eslatma: Ayol erini deb Allohning amriga
qarshi ish qilmasligi.....75
43-eslatma: Er-xotin rag‘batlarida
bir-biriga uzr berishi.....77
44-eslatma: Ochlik bilan yolg‘onni
jamlamanglar.....79
45-eslatma: Ayolning eriga muomalasi —
farzandining unga muomalasidan darak beradi....81
46-eslatma: Sovchingizning qaysi
xislatiga qiziqasiz?.....83
47-eslatma: Ayollar dajjol fitnasiga tayyormi?.....85
48-eslatma: Rashk — fitrat va iymonni
buzuvchi illat.....87
49-eslatma: Farzandingiz haqqiga nima
deb duo qilyapsiz?.....90
50-eslatma: Oisha onamizni nima
“Sarid”ga aylantirdi?.....92
51-eslatma: Salaflarning bola tarbiya
uslublaridan.....95
52-eslatma: Gunohkorlik tamg‘asidan qutulish
uchun boshqalarni ham gunohkor qilmang.....97
53-eslatma: Kundoshni kuydirish -
sehr hukmida.....100
54-eslatma: Farzandingizni qarg‘amang.....102
55-eslatma: Erkak va ayol orasiga sovuqlik
soluvchi omillar.....105

56-eslatma: “Hali bolada” demang.....108
57-eslatma: Nikohdan ko‘zlagan
g‘oyangiz nima?.....111
58-eslatma: Bulbul va’dasi.....114
59-eslatma: Qizlar ota-onani o‘g‘illardan
ko‘proq sobit qiladilar.....117
60-eslatma: Baxtli hayot ma’nosi.....119

“Zaytun nashriyoti”da chop etilgan kitoblar







Ayollar uchun 60 eslatma

Kitob:	Ayollar uchun 60 eslatma
Nashriyot:	Zaytun nashriyoti
Sahifa soni:	128 bet
Nashr:	Birinchi
Vaqt:	2025 (1447)-yil
Muallif:	Abu Yahyo
Dizayner:	Abu Yusuf
Muharrir:	Abu Yahyo, Abdurahmon Kaatib

AYOL MO‘MINANING ZIYNATI TAQVODA, NA ZEB-ZIYNATDA.
UNGA ENG GO‘ZAL LIBOS – HAYO, ENG QIMMAT TAQINCHOQ – SABRDIR.
ONALIK QALBI JANNATGA ELTUVCHI ENG ULUG‘ YO‘LDIR.
ILM BILAN NUR TOPADI, IBODAT BILAN QALBI SOKINLASHADI
YAXSHI XULQ AYOLNI ENG ULUG‘ MAQOMGA KO‘TARADI.
ALLOHDAN QO‘RQQAN AYOL — OILANING BARAKASI, JAMIYATNING KO‘RKI.

ZAYTUN NASHRIYOTI